

<4i

n

i  
1  
\$

i

1

y

**\$zJ**  
**IV**  
H. JAMOLXONOV

# **HOZIRGI ӮZBEK ADABIY TILI**

*O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta 'lim vazirligi  
oliy o 'quv yurtlari uchun darslik sifatida  
nashrga tavsiya etgan*

Toshkent - «Talqin» - 2005

TDU  
IIJC , {LgftS?

**Taqrizchilar:** **Yormat Tojiyev, Hakimjon Shamsiddinov.**  
Mirzo Ulubek nomidagi Ozbekiston Milliy universiteti professorlari, filologiya fanlari doktorlari;  
**Ravshanxona Rasulov.** Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori, tilologiya fanlari doktori.

### Shartli qisqartmalar

A. N. - A. Navoiy	S.Ahm - Said Ahmad
A. Rahm. - A. Rahmat	.S. Z. - Saida Zunnunova
A. Q. - A. Qahhor	S.N. - - Said Nazir
A. Qod. - A. Qodiriy	snq. — sanoq sonlar
ar. — arabcha	su <u>o</u> d. — su <u>o</u> dcha
V. Sa'd. - Vosit Sa'dulla	sft. - sifat
DLT. - Devonu lu <u>o</u> tit turk	T.M. - Tohir Malik
J. A. — J. Abdullaxonov	turk. - - turkcha
J. Sh. — Jumaniyoz Sharipov	turkm. — turkmancha
Z. Sh. — Z. Sharofiddinov	Uy <u>o</u> . - Uy <u>o</u> un
M. Ism. - M. Ismoiliy	f.-t. - forscha-tojikcha
M. Os. - M. Osim	Sh. - Shuhrat
M. Sh. - M. Shayxzoda	Sh. R. — Sharof Rashidov
Mirm. - Mirmuhsin	□. H. - □tkir Hoshimov
Muq. — Muqimiy	□TIL — □zbek tilining izohli lu <u>o</u> ati
M <u>o</u> <u>o</u> . — m <u>o</u> <u>o</u> ulcha	Q. M. - Quddus Muhammadiy
O. - Oybek.	qir <u>o</u> . - qir <u>o</u> izcha
O. Yo. - Odil Yoqubov	qoz. — qozoqcha
O. Q. - Olim Q <u>o</u> chqorbekov	qoraq. — qoraqalpoqcha
P. T. - Parda Tursun	□.□. — □afur □ulom
P. Q. - Pirimqul Qodirov	ILDeh — Hisrav Dehlaviy
r.-b. - ruscha-baynalmilal	H.N. - Hakim Nazir
R. F. - Rahmat Fayziy	H.O. - Hamid Olimjon
Rud. - Rudakiy	H.Sh. — Husayn Shams
S. A. — S. Ayniy	Hab. - - Habibiy
S. An. — S. Anorboyev	

## SQBZBOSHI

«Hozirgi ozbek adabiy tili» darsligi universitet va pedagogika institutlarining ozbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun yaratilgan oquv adabiyotining 1<sup>q</sup> qismi bolib, u shu nomdag'i oquv kursining «Kirish», «Fonetika va fonologiya», «Grafika va orfografiya», «Orfoepiya», «Leksikologiya va frazeologiya», «Leksikografiya» bolimlarini oz ichiga oladi. Darslik shu oquv kursi dasturiga va hozirgi pedagogik texnologiyalar talabiga mos ravishda yozildi. Uning yaratilishida I.A.Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba, N.S.Trubetskoy, L.R.Zinder, V.K.Juravlyov, V.F.Ivanova, T\A.Amirova, E.Pulgrem, A.Makntosh, E.A.Lorash kabi rus va jahon tilshunoslarining, shuningdek, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, O.A.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, F.K.Kamolov, A.Hojiyev, Sh.U.Rahmatullayev, A.Rustamov, X.Doniyorov, A.Mahmudov, N.Mahmudov, S.Otamirzayeva, AAbduazizov, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, K.Nazarov, H.Ne'matov kabi ozbek tilshunoslarining asarlari va oyalarilari ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan asos bolди.

Darslikda tovush va fonema, fonemalarning sistemaga uyushish qonuniyatları talqiniga, shuningdek, til birliklari bilan yozuv birliklari ortasidagi aloqlar mexanizmini, leksema va fazemalarning luqaviy birlik, sememe va semalarning esa semantik birlik sifatidagi tabiatini va mohiyatini yoritishga, talabalarni ozbek luqatchiligi tarixi, luqat tiplari va turlari, luqat maqolalari sxemalari bilan tanishtirishga alohida e'tibor berildi; mavzularbayonining tushunarli boiishini ta'minlash maqsadida tayanch tushuncha nomlari bolttirib korsatildi (qora rang, kursiv, razryadka va h.k.), tasvir, jadval va chizmalar, tegishli manbalarga havolalar (snoskalar) berildi. Har bir bolim bol yicha qoshimcha maiumotlar olish imkoniyatini varatish maqsadida adabiyotlar royxatiga darslik va qoilanmalardan tashqari ilmiy maqolalar, til va yozuvga oid qonun, farmon va qarorlar ham keltirildi.

## IRISH

**Adabiyotlar:** 3 [41-46), 10 [3-8], 26 [4-5], 27 [3-11].

### **1- §. «Hozirgi Ӯzbek adabiy tili» kursining obyekti, maqsadi va vazifalari**

**Kursning obyekti** — hozirgi Ӯzbek adabiy tili, uning Ӯzbek milliy tili tarkibidagi Ӯrni.

**Kursning maqsadi** — talabalarni «til strukturasi — norma (me'yor) — uzus» masalalariga, adabiy til va milliy til, adabiy til va dialektlar, adabiy til va jargon-argolar, adabiy til va funksional stillar (vazifaviy uslublar) munosabatiga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, shu bilimlarga tayangan holda ularga hozirgi Ӯzbekadabiytiliningstaikturaviy, mazmuniy va vazifaviy xususiyatlari, oӮzaki va yozma shakllari haqida ma'lumot berish.

**Kursning vazifalari:** a) sohaga oid adabiyotlar ustida ishslash, asosiy tushunchalar, terminlar va nazariy umumlashmalar bilan tanishish; b) til ierarxiyasidagi fonetik-fonologik, leksik, semantik vagrammatiksathlarga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor (norma) bӮlgan va me'yor bӮlмаган belgi-xususiyatlarini qiyosan Ӯrganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali, nuqtalarni aniqlash; d) hozirgi Ӯzbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralngvistik) omillar haqida talabalarga ma'lumot berish, ularda, hozirgi Ӯzbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish kӮnikmalarini shakllantirish.

### **2- §. Hozirgi Ӯzbek adabiy tili**

Hozirgi Ӯzbek adabiy tili Ӯzbek milliy tilining oliv formasi — ishlov berilgan, me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiyligani barqaror shaklidir. Demak, u milliy tilga zid qayyilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriq bosqichi, tartibga solingen bosh kordinishi, xoios.

**Dialekt** — umumxalq tilining mat'um etnikguruuhga mansub kordinishi.

**Sheva** - mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammaatik umumiyyikka ega b□lgan, bir yoki bir necha qishloqni □z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi [125, -130]. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- a) adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiydir, dialect va shevalar esa millat tarkibidagi etnik guruhlarning har biri uchun alohida-alohida b□ladi, bir-biridan fonetik, leksik, grammaatik jihatdan farqlanadi;
- b) adabiy tilning yozma shakli mayjud: u ma'lum me'yorlarga b□ysun-dirilgan yozuv sistemasiga asoslanadi. Dialekt va shevalar uchun alohida adabiy-orfografik yozuv y□q; d) adabiy tilning q□llanishi hududiy (territorial) jihatdan chegaralanmaydi, dialect va shevalarning q□llanishi esa bu jihatdan chegaralangandir; e) adabiy tilda davlat ishlari — xalq ta'limi, matbuot, radio-televiedeniya, ilm-fan, ma'muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qinun, farmon va qarorlar shu tilda eioti qilinadi. Dialekt va shevalar bu funksiyada q□llanmaydi.

**Jargon va argolar** - maium ijtimoiy guruhJarga, masalan, □□rilarga, sportchilarga yoki talabalarga xizmat qiladigan yasama til. Bunday «til» elementlari (jargonizm va argotizmlar) adabiy tilda ishlatilmaydi.

**Funksional stillar** — tilning vazifaviy uslublari. Bunday uslublar inson faoliyatining u yoki bu sohasiga xoslangan nutqni qoliplaydi. Chunonchi: 1) *rasmiy ish uslubi*. Bu uslub ma'muriy-idoraviy hujjatlar tilini qoliplaydi; 2) *ilmiy uslub* — ilmiy asarlar tilini va ilmiy nutqni qoliplaydi; 3) *publitsistik uslub* — ommabop asarlar, ma'ruzalar tilini qoliplaydi; 4) *so 'zlashuv uslubi*. Bu uslubning ikki xil k□rinishi mavjud: a) *adabiy so 'zlashuv uslubi*; b) *oddiy (fonli) s□zlashuv uslubi*; 5) *badiiy uslub*. Bu uslub badiiy asar tilini va badiiy nutqni qoliplaydi.

Adabiy til bilan funksional uslublar □rtasidagi munosabatlar quyidagicha: rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik tislub adabiy til me'yorlariga tayanadi, demak, adabiy tilga zid q□yilmaydi; s□zlashuv uslubining «a» k□rinishi ham shunday: unda dialektizm, jargonizm va vulgarizmlar qatnashmaydi; s□zlashuv uslubining «b» k□rinishi esa nutqning maxsus tayyorgarliksiz b□lishi, erkin muomalaga asoslanishi bilan xarakterlanadi. («Leksemalarning nutq k□rinishlariga xoslanishi» mavzusiga qarang.)

Adabiy tilga munosabat jihatdan badiiy uslub alohida baholanadi: u, odatda, badiiy asar tilini belgilaydi, badiiy asar tilida esa ad'ab«V til me'yorlaridan chetga chiqish hollari k□p uchraydi: obraz va personajlai nutqini tipiklashtirish zarurati shuni taqozo qiladi. Quyidagi misollarga eiborberaylik:

*/. Asadbek molodes! Vissiy klass! - dedi u. - Aniq topibdi. Endi u bilan hazillashib b□lmaydi. (T.M.)*

*2. U qizi□ar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi ... (T.M.) 3.*

*Akamullo, akamullo, sizni yo 'qoshopti, idoraga yo 'qloshopti.*

*—Nima gap ?*

*—Hojar ayani bachasi sahroda borkan ekan ... B□ronda qolgan ekan ... Qaytib kelmohti ... S□□in X□janazar akoning duxtori b□ronga qolip □lipti ...*

*Hoshim yugurganicha chiqib ketdi. Mahmuda bilan Mohidil bir-biriga hayron qarab qo/ishdi! (J.A.)*

Birinchi misoldagi nutqiy parchada grammatik-sintaktik varvarizm («Asadbekmolodes!», «Vissiyklass»), ikkinchi gapda vulgarizm («qizi□ar»), uchinchi misoldagi dialogda esa □zbek-tojik ikki tilliligi ta'sirida b□lgan □zbek shevalarining s□zlari («aksmullo» «bacha», «duxtor», s□□in» kabi leksik dialektizmlar), shu shevaga xos grammatik formalar («yo 'gloshopti», «ketmohti» kabi grammatik dialektizmlar), aka s□zining ako shaklidagi dialektal k□rinishi (leksik-fonetik dialektizm) qoilangan. Bunday q□llanishiar adabiy til uchun me'yor emas albatta, ammo ular badiiy uslub talabiga k□ra ishlatilgan, natijada badiiy asarning □oyaviy-estetik jihatlarini ta'sirh, ishonarii qilib ifodalashga erishilgan.

### **3- §. Hozirgi □zbek adabiy tilining o□zaki va yozma shakllari**

Hozirgi □zbek adabiy tilining o□zaki va yozma shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi.

1. Adabiy tilning o□zaki shakli t□□ri talaffuz me'yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning moddiy-material asosini fizik-akustik birlıklar (nutq tovushlari, ur□u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm, temp) tashkil etadi; uning tarixiy ildizlari xalq o□zaki ijodi namunalarida — dostonlar, q□shiqlar, maqollar, hikmatli s□zlar, topishmoqlar, ertaklar negizida rivojlanib, o□izdan-o□izga □tib kelgan, shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me'yorlari shakllangan. Hozirgi □zbek adabiy tilining o□zaki shakli k□proq adabiy s□plashuv uslubida namoyon boidi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham muhim rol □ynaydi.

2. Hozirgi □zbek adabiy tilining yozma shakli, awalo, yozuv sistemasiga hamda shu sistema birlıklarini (grafemalarni, orfogrammalarini) k□rish va □qishga asoslanadi. Yozuv sistemasi, maiumki, grafika, orfografiya va

puntuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi, demak, uning moddiy-material asosini optik-grafik vositalar tashkil qiladi.

Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publitsistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari borligi ham kuzga tashlanadi.

#### **4-§. Hozirgi ozbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar**

Hozirgi ozbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar ikki xildir:

1. Lingvistik (lisoniy) omillar. Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari — fonemalar tizimi, lumat boyligi, morfema tiplari, soz yasash modellari, grammatic qurilishi, leksik, grammatic birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular ortasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, ana shularga tayanadi.

2. Ekstralengvistik (nolisoniy) omillar. Bularga tildan tashqarida mavjud bolgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar ortasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlarshular jumlasidandir. Masalan, ozbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy hayotida ham jiddiy ozgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat kortsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi ozbek tili leksikasiga ham ta'siriktazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushunchalar nomlari (*partkom, raykom, obkom, sovxozi, oblast* kabi sozlar) iste'moldan chiqib, ozbek tili lumat boyligining tarixiy qatlamiga olib qoldi, ularning ornida hozirgi mustaqil ozbekiston hayoti taqozo qilgan yangi soz va atamalar (*kol/ej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes* kabilar) paydo boldi, *hokim, hokimiyat, viloyat, tuman* kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma'no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday sozlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga olib qoldi.

Keltirilgan malumotlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit yaratadi, har ikkalasi bir butun mexanizm sifatida xizmat qiladi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

## **5- §. Hozirgi Ӯzbek adabiy tilining davlat tili mavqeyidagi Ӯrni**

Hozirgi Ӯzbek adabiy tilida, yuqorida aytib Ӯtilganidek, davlat ishlari o/ib borifadi. Ӯzbekistonning davlat tili deyilganda ham k□proq darajada Ӯzbek adabiy tili nazarda tutilgan, binobarin, adabiy til davlat tomonidan himoyalangandir. Bunday himoya quyidagi hujjatlar bilan kafolatlangan:

1. Ӯzbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni (Ӯn birinchi chaqiriq Ӯzbekiston Oliy Kengashining Ӯn birinchi sessiyasida 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan).
2. Ӯzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (4- modda).
3. «Davlat tili haqida»gi qonunning yangi tahriri, 1995- yil 21- dekabr.

### ***Tekshirish savollari***

1. «Hozirgi Ӯzbek adabiy tili» kursi nimani Ӯrganadi?
2. Kurs oldiga qanday maqsad va vazifalar q□yilgan?
3. Nima *uchun* adabiy til milliy tilning oliy formasi sanaladi? Belgilari?
4. Adabiy til bilan dialekt, sheva va funksional stillar Ӯrtasidagi munosabatlar va tafovutlar nimadan iborat? 5. Adabiy tilning o□zaki va yozma shakllari qanday farqlanadi? 6. Til taraqqiyotini belgilovchi lingistik va ekstralinskyistik omillarni qanday tushunasiz? 7. Adabiy tilning vazifa doirasi? 8. Ӯzbek tilining davlat tili maqomi qanday hujjatlar bilan kafolatlangan?

### ***Tayanch tushunchalar***

**Kursning obyekti** — hozirgi Ӯzbek adabiy tili.

**Kursning maqsadi** — talabalarni adabiy tilga oid nazariy va amaliy bilimlar bilan tanishtirish.

**Kursning vazifalari** — talabalarga hozirgi Ӯzbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki va tashqi omiilar haqida ma'lumot berish, ularda hozirgi Ӯzbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish k□nikmalarini shakkantirish.

**Adabiy til** — milliy tilning ishlov berilgan, meyorlashtirilgan oliy formasi.

**Sistema** — har biri alohida mustaqil (avtonom)b□lgan murakkab mexanizmlar (fonemalartizimi, morfemalartizimi, leksik birliklartizimi, sintaktik konstruksiyalar tizimi) Ӯrtasidagi aloqadorlikdan tarkib topgan makrotizim.

<8

**Struktura** — bir butun tizim (makrotizim) tarkibidagi mikrotizimlar, ular o'rtaqidagi aioqlar mexanizmi.

**Norma (me'yor)** — adabiy tilga va adabiy nutqqa xos barqaror belgi-xususiyatlar. Ular ijtimoiy *til* amaliyatida tanlab olinadi va mustahkamlanadi.

**Lingistik omillar** — til strukturasi va sistemasiga mansub birligani, shu tizim qoida-qonuniyatlaridan kelib chiqadigan omillar: fonemalarning funksional xususiyatlari, morfema tiplari, leksik va grammatik tizimlar xususiyatidan kelib chiqadigan faktorlar. Ular lisoniy omillar deb ham yuritiladi.

**Ekstralangistik omillar** — tildan boshqa sistemalarga oid faktorlar (nolisoniy omillar). Ulartil taraqqiyotiga tashqaridan (til vajamiyat, *til* va ong, til va tafakkur munosabatlari jarayonida) ta'sir o'tkazadi.

**Uzus** — leksema, frazema, sifat shakli va sintaktik konstruksiyalarning til egalari tomonidan qabul etilgan qoidalari.

Til — fonetik, leksik va grammatik vositalar o'rtaqidagi aloqa-munosabatlardan tarkib topgan barqaror tizim (sistema).

**Nutq** — til vositalari ishtirokida fikr ifodalash jarayoni.

**Ierarxiya** — til tizimida quyidan yuqoriga qarab bosqichma-bosqich joylashgan sathlar (yaruslar) yillardisi: fonetik-fonologik sath (quyi yarus), morfemik sath, Ieksik sath (yuqori yaruslar), grammatik sath (yanada yuqoriroq yarus) kabi.

## **HOZIRGI O'zbek ADABIY TILINING TARIXIY ILDIZLARI VA DIALEKTAL ASOSLARI**

**Adabiyotlar:** 3 [12-26, 41-46, 161-164], 10 [8-16], 17 [21-23], 18 [5-59], 28 [3-174].

### **6- §. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildiziari**

Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha birligan davr); b) qadimgi turkiy til (VII-XI asrlar); d) eski turkiy til (XI-XIII asrlar); e) eski o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar); f) yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri — XX asrning boshlari). O'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30-yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan<sup>1</sup>.

*Bu haqda qarang:* Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. ~ T.: «O'qituvchi», 1973, 17-26-b.

urkologiyada va Ӯzbek tilshunosligida Ӯzbek tili tarixini boshqacharoq davrlashtirish holatlari ham uchraydi [qarang: 17, -21-23].

Ӯzbek tilining taraqqiyot bosqichlarini kўzdan kechirish qadimgi turkiy tildan hozirgi Ӯzbek adabiy tiligacha bўlgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, hozirgi Ӯzbek adabiy tilining qadimgi turkiy, eski turkiy va eski Ӯzbek adabiy tillaridan farqlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday farqlarning paydo bўlishi, odatda, ikki omilga asoslanadi: 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga — tilning Ӯzidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar munosabatiga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar Ӯrtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga). Ӯzbek tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos) til vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama) til vazifasini Ӯtagan. Substrat va superstrat tillar Ӯrtasidagi aloqa odatda bilingvizm (ikki tillilik) yoki polilingvizm (kўp tillilik) sharoitida ynzaga keladi va tillar substratsiyasi deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, Ӯzbek-arab, Ӯzbek-tojik, Ӯzbek-rus ikki tilliliklari sharoitida asos til bilan ustama tillar Ӯrtasida boўlangan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatlar bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi Ӯzbek adabiy tiligacha bўlgan davrda til strukturasida qator Ӯzgarishlarni yuzaga keltirgan. Buni til sathlari va tizimlari bўyicha keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan anglab olsa bўladi.

**1. Tilning fonetik-fonologik sathida:** a) qadimgi turkiy til vokalizmida 8 unli bўlgan (a, bl, o, u — orqa qator, yўон unlilar; o, i, e, y - old qator, ingichka unlilar); b) eski turkiy til va eski Ӯzbek tillarida ham shu 8 unli saqlangan. ammo eski Ӯzbek tilida old qator lablanmagan e unlisi hisobiga vokalizm tizimi 9 unlidan iborat bўlgan; d) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski Ӯzbek tillarida unli tovushlarning yўонlik-ingichkalik ziddiyati (oppozitsiyasi) bўlgan: i—w, e—a, y—u, e—o kabi; e) hozirgi Ӯzbek adabiy tili vokalizmida unlilar miqdori 6 taga tushib qolgan (i, e, a, u, Ӯ, o). Bu tizimda yўонlik-ingichkalik oppozitsiyasi yўq, ayrim tovushlarning sifat belgilari ham Ӯzgargan. Masalan, orqa qator, lablanmagan **a** Ӯrnida kuchsiz lablangan **o** (o) unlisi paydo bўlgan. Qiyoq qiling: *ata - ota, at - ot kabi*; f) qadimgi turkiy til konsonantizmida b, m, p, v, s, z, t, d, n, l, r, ch, sh, y, q (k), Ӯ (g), TJ undoshlari bўlgan, bu undoshlarning kўpchiligi palatal (ingichka yoki yumshoq) va velyar (qalin) variantlarga ega edi; g) eski Ӯzbek adabiy tilida undoshlar 24 taga yetgan (b, m, p, v, f, s, z, t, d, n, l, r, ch, sh, j, j (dj), y, q, k, Ӯ, g, n, x, h). Konsonantizm tarkibida undoshlar miqdorining ortishi Ӯsha davrdagi Ӯzbek-arab va Ӯzbek-fors ikki tilliligi (bilingvizmi) ta'sirida, shuningdek, ayrim undoshlarning divergensiyasi (bir fonemaning ikki fonemaga ajralishi)

natijasida sodir bolgan; h) hozirgi ozbek adabiy tili konsonantizmida yuqoridagi 24 undoshning barchasi bor. Ayrim tilshunoslarning (masalan, prof. A. Abduazizovning) fikricha, rus tilidan ozlashgan sozlarda uchraydi-gan qorishoq «ts» ham ozbek tili undosh fonemalari qatoridan orin olgan deb qaralishi kerak.<sup>2</sup> Yuqoridagi malumotlar tahlilidan quyidagilar ma'lum boladi: a) qadimgi turkiy til konsonantizmida f, x, h, j, j (dj) undoshlari bolmanan. Ular eski turkiy til va eski ozbek adabiy tili davrida turli lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralengvistik) omillar ta'sirida paydo bolgan; b) qadimgi turkiy tilda q va k undoshlari bir fonemaning nutqdagi ikki korinishi — ottenkalari bolgan, keyinchalik bu fonema divergensiyaga uchrab, ikki mustaqil fonemaga aylangan; o va g undoshlari rivojida ham ayni shu jarayon (divergensiya) bolganligini — «g» ning «o» va «g» ga parchalanganligini koramiz.

**2. Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi ozgarishlar:** a) qadimgi turkiy tilda r, I, v, o (g), z, d, r\ undoshlari soz boshida qollanmagan. Eski ozbek adabiy tili va hozirgi ozbek adabiy tilida esa bu tovushlar («r» dan boshqalari) soz boshida ham ishlatalidi; b) m undoshi qadimda soz boshidagi «b» ning varianti sifatida qollangan, BEN - «men» [105, -94], MEN - «men» [105, -340]. Bin - «ming» [105, -101], Min - «ming» [105, -344] kabi; soz ortasida va oxirida esa mustaqil fonema bolgan: Qabaq - «qovoq» [105, -399J, Qamaq - «butun», «barcha», «tola» [105, -414]; TAM - «devor» [105, -523], «uy» [107, 3-t., -151], TAB - «Top» [105, -525]. Uning mustaqil fonema sifatida soz boshida qollanishi eski o"ozbek tiiida bir qadar uchrab turadi, hozirgi ozbek adabiy tilida esa uning soz boshida qollanishi ancha keng tarqalgan; d) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar soz boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski ozbek tilida ham saqlangan, ammo hozirgi ozbek adabiy tilida esa undoshlarning soz yoki booin boshida qatorlashib kelishi me'yoriy holatga aylangan; bu hodisa ozbek tiliga rus tilidan ozlashtirilgan sozlarga xos (*brom, professor, shkaf, traktor, trolleybus, tramvay* kabi); e) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning soz oxirida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: *qirq, alp* («mergan ovchi»), *art* («yelka») kabi. Eski ozbek tilida undosh tovushlarning soz oxirida qatorlashib kelishi biroz kopaygan (fors-tojik va arab tillaridan soz ozlashtirish hisobiga): *dost* (forscha ozlashma), *hamd*(arabcha ozlashma: «maqtov»), o*isht* (tojikcha ozlashma), *go 'sht* (tojikcha ozlashma) kabi. Hozirgi ozbek adabiy tilida booin yoki soz oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali

*Qamng:* Abduazizov A. ozbek tili fonologiyasi va morfonologivasi. — T.: «oqituvchi», 1992, 19-20-b.

□zlashgan s□zlar hisobiga ancha k□paygan: *boks, kodeks, kort, iks* kabi; f) qadimgi turkiy va eski □zbek tillarida s□z oXirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (geminatsiya) b□Imagan. Hozirgi □zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning s□z oxirida qavatlanishi uchrab turadi: *gramm, klass, vatt, ball* kabi ruscha-baynalmilal □ziashmalar buning dalilidir; g) qadimgi turkiy tilda s□zning birinchi b□□inidan keyingi b□□inlari faqat undosh bilan boshlangan: *o-na, o-ta, o-□a, i-ni, bo-la* kabi. Bu hol s□z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga sabab b□lgan. Eski □zbek tilida arab tili □zlashmalarining paydo b□lishi bu qonuniyatga chek q□yan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi □zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik □zlashmalar hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

**3. Singarmonizm:** 1) qadimgi turkiy til va eski □zbek tilida singarmonizm (s□z tarkibidagi □zak va q□shimchalarda unlilarning uy□unlashuvi) mavjud b□lgan. Qiyos qiling: *keldyk* («kel» dagi «e» — old qator, ingichka unli + «-dyk» dagi «y» ham old qator, ingichka unli) va *barduk* («bar»dagи «a» — orqa qator, y□□on unli + «-duk» dagi «u» ham orqa qator y□□on unli). Bu misollardagi unlilartilgarmoniyasi qonuniyati asosida uy□unlashgan. *Kelip* va *keryp* s□z shakllarining birinchisida («kel+ip»da) □zak va q□shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida («ker+yp» da) esa □zak va q□shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uy□unlashgan; 2) hozirgi □zbek adabiy tilida singarmonizm □z mavqeyini ancha y□qotgan. Qiyos qiling: *korlyryz* (eski □zbek tilida) — *k□nglingiz* (hozirgi □zbek adabiy tilda), *keryp* (eski □zbek tilida) — *k□rib* (hozirgi □zbek adabiy tilda) kabi.

**Izoh:** singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va □□uz dialektlariga mansub □zbek shevalarida saqlangan: *olgan* (adabiy tilda) — *al□an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *borgan* (adabiy tilda) — *bar□an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *kelgan* (adabiy tilda) — *kelgen* (qipchoq lahjasi shevalarida), *□ttiz* (adabiy tiida) - *ottuz* (qipchoq lahjasi shevalarida), *uyimga* (adabiy tilda) - *yyyme* (□□iz lahjasi shevalarida) kabi.

**4. Tilning lu□at boyligida:** 1) qadimgi turkiy tilda fors-tojik va arab s□zleri b□Imagan. Eski turkiy tilda fors-tojik va arab s□zleri q□llana boshlangan, eski □zbek tilida bunday □zlashmalar ancha k□paygan: *gul, gavhar, guruch, g□r* (fors-tojik s□zleri), *madrasa, oila, fikr, firoq, hosil* (arabcha s□zlar). Hozirgi □zbek adabiy tilida bunday □zlashma s□zlarning ayrimlari eskirgan (masalan, *muvallidulhamuza, handasa, tarh* kabilar), ularning □rnida bir qator ruscha □zlashma termin va atamalar paydo b□lgan (*kis/orod, geometriya, avtobus, tramvay* va b.); 2) qadimgi turkiy

tildagi ayrim sõzlarning eski Ӯzbek tilida tojikcha sinonimlari paydo bўлган: *chechak* (turkiy) - *gul* (tojikcha), *yo‘och*, *yi‘och* (turkiy) - *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy) - *tilla* (tojikcha), *buloq* (Ӯzbekcha) — *chashma* (tojikcha), *qirov* (Ӯzbekcha) — *shabnam* (tojikcha) kabi; 3) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski Ӯzbek tillarida qisqartma sõzlar (abbreviatura-lar) bўлмаган. Hozirgi Ӯzbek tilida bunday qisqartmalar anchagina bor: BMT, TDPU, SamDU kabi. Keyingi yillarda Ӯzbek tili leksikasida IIB (Ichki ishlarbўlimi), IIIB (Ichki ishlar bўlimi boshqarmasi), IV (Ichki ishlar vazirligi), DAN (Davlat avtoinspeksiya nazorati), 0'zMU (Ӯzbekiston Milliy universiteti), BuxDU (Buxoro Davlat universiteti), QarMII (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti) kabi yangi qisqartma nomlar ham paydo bўldi; 4) Ӯzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shuningdek, mustaqil Ӯzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy islohotlar Ӯzbek tili leksikasida yana bir qator yangi sõzlarning yuzaga kelishiga yoki ayrim eskirgan sõzlarning qayta tiklanishiga sabab bўlmoqda: *supermarket*, *fermer*, *aksiyador*, *vazirlik*, *nozir*, *devonxona*, *ta 'til* kabilar shular jumlasidandir; 5) rus tili va rus yozuvni ta'sirida yuzaga kelgan *tok* («elektor toki») va *tok* («uzum toki») kabi omograflar, *to 'rt* («miqdor son») va *tort* («konditer mahsuloti») kabi omofonlar ham kўproq hozirgi Ӯzbek adabiy tili leksikasiga xosdir.

**5. Tilning grammatic qurilishida:** 1) qadimgi turkiy va eski Ӯzbek adabiy tillarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil sõz turkumlari bўлган. Bunday mustaqil sõzlar hozirgi Ӯzbek adabiy tilida ham bor; 2) qadimgi turkiy va eski Ӯzbek adabiy tillarida yordamchi sõzlar - kўmakchilar, bo‘lovchilar va yuklamalar bўлган. Bunday turkumlarga xos sõzlar hozirgi Ӯzbek adabiy tilida ham mavjud; 3) qadimgi turkiy va eski Ӯzbek tillarida undovlar va modal sõzlar bўлган. Ular hozirgi Ӯzbek adabiy tilida ham bor; 4) qadimgi turkiy tilda ham, eski Ӯzbek tilida ham har bir sõz turkumining Ӯziga xos grammatic kategoriyalari (otlarda - egalik, kelishik, son; sifatlarda — daraja; fe'llarda — shaxs-son, mayi, nisbat, zamon va b.lar) bўлган. Bu xususiyatlar hozirgi Ӯzbek adabiy tiliga ham xos. Biroq, hozirgi Ӯzbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski Ӯzbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlar ham uchraydi: 1) hozirgi Ӯzbek adabiy tilida morfemalar qadimgi turkiy va eski Ӯzbek adabiy tillaridagiga nisbatan miqdoran kўp va mazmunan boydir. Masalan: qadimgi turkiy tilda Ӯzakdan oldin qўshiluvchi affiks morfemalar (prefikslar) bўлмаган. Bu tipdagi morfemalar eski Ӯzbek tilida va hozirgi Ӯzbek adabiy tilida uchraydi: *bebosh*, *bevosita*, *bavosita* (*bilvosita*), *no‘rin*, *sersuv*, *sergap* kabi; b) eski Ӯzbek adabiy tilida «-ov», «-yev», «-ova», «-yeva», «-ovna», «-yevna», «-ovich», «-yevich» kabi familiya yasovchi qўshimchalar

bilagan. Hozirgi zbek adabiy tilida bunday qishchalar bor; d) eski zbek adabiy tilida «-lar» affiksi koplikni (*odamlar, qishloqlar* kabi), birgalikni (*Karimlar ke/ishdi*), ma'no kuchaytirilishini (*suvlarbqib yotibdi*), chama yoki taxminni (*qirq yil/ar boldi kabi*) ifodalagan. Hozirgi zbek adabiy tilida esa «-lar»affiksining sizlami terminlashtirish funksiyasi ham paydo blgan: *qirqulloqsimonlar, sute Mizuvchilar...* kabi; 2) qadimgi turkiy va eski zbek adabiy tillarida singarmonizm mavjud blganligidan kpchilik morfemalarning yon va ingichka turlari saqlangan: «-mbiz» va»-miz» (*barambizh kelamiz* kabi), «-gan» va «-g'on» (*kelg'm va boron*), «-chbi» va «-chi» (*yo 'chbi* — «azani boshqaruvchi» va *badizchi* — «naqqosh» kabi). Hozirgi zbek adabiy tilida esa ulardan faqat bittasi standart forma sifatida saqlangan (*boramiz, kelamiz, borgan, kelgan, qridgechi* va *ishchi* kabi), «-lbiq» va «-lik» haqida ham shu fikrni aytish mumkin; 3) eski zbek adabiy tilidagi ba'zi affikslar hozirgi zbek adabiy tilida qillanmaydi. Masalan, «-vul» affiksi eski zbek adabiy tilida *qorovul, yasovul* kabi sizlarni yasagan, hozir esa bu affiks siz yashash xususiyatini yotgan; 4) qadimgi turkiy tildabosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi («-n», «-bi», «-in», «-yn», «-un», «-on», «-en»), jonalish kelishigi, rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi blgan. Hozirgi zbek adabiy tilida shulardan bittasi - vosita kelishigi yq. U qadimgi turkiy tilda «bilan» kmakchisi funksiyasiga teng blgan: masalan, *tilin sozlep, qo/qaqb'm eshidip* («tili bilan sizlab, qulo*i* bilan eshitib...») kabi.

## **7- §. Hozirgi zbek adabiy tilining dialektal asoslari**

zbek tili bir qator shevalarni z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtayi nazardan uchta katta lahjaga — qarluq, qipchoq va uz lahjalariga birlashtiriladi. Hozirgi zbek adabiy tilining tarkib topishida ana shu uchta lahja shevalarining ishtirot etganligi tabiiy bir holdir, ammo ulardan qaysi biri adabiy tilga kproq darajada asos blganligi masalasida tilshunoslar orasida yakdillik yq. Kpchilik manbalarda hozirgi zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarluq lahjasи, xususan, iining Toshkent-Farona tipidagi shahar shevalari ishtirot etganligi krsatiladi<sup>3</sup>, Ammo ayrim tilshunoslar (masalan, prof. X. Doniyorov, dotsent B. Tychiboyev) adabiy tilning tayanch dialekti masalasiga boshqacharoq yondashadilar: ularning fikricha, hozirgi zbek adabiy tilining tarkib

<sup>3</sup> Bu haqdu qarang: Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh.Sh. zbek tiii dialektologiyasi. — T.: <0"qituvchi>, 1978, 43-b. Abdurahmonov G. Mamajonov S. zbek tili va adabiyoti. - T., «zbekiston». 2002. 44-b.

topishida qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham faol qatnashgan, shunga k□ra adabiy til meVorlariga oid ayrim masalalar (xususan, vokalizm tizimi, alifbo tuzilishi) qayta k□riliши kerak. Bu mualliflarning ta'kidlashicha, hozirgi □zbek adabiy tili vokalizmida 6 ta emas, 8-9 ta unli fonema bor, ular i/bi, e/a, y/u, o/o kabi kontrast juftliklarni hosil qiladi<sup>4</sup>.

Hozirgi □zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning j□naliш, □rin-payt va chiqish kelishiklaridagi shakkllari Toshkent- Far□ona gruppа shevalariga asoslanadi: «-ga» (j. k.), «-da» (o<sup>L</sup>-p. k.) va «-dan» (ch. k.) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakkllari quyidagicha b□ladi: Samarqand shevasida «-ga» formanti j□naliш va □rin-payt kelishiklari ma'nosini ifodalaydi: *Buxoroga ketopti* («Buxoroga» — otning j□naliш kelishigidagi shakli), *Buxoroga □qopti* («Buxoroga» — otning □rin-payt kelishigidagi shakli) kabi. □□uz lahjasи shevalarida «-ga» □rnida «-□a» (qurvaqa□a), «-ye» (tangaye), «-no» (erkino), «-na (yanbina), «-e» (yyimo) formantlari ishlatalidi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: «-ni»/«-nw», «-ning»/«-nwng» (qipchoq lahjasи shevalarida), «-ning»/«-ing», «-nbing»/«-bing» (Iqon, Qorabuloq, Hazorasp shevalarida), «-ni»/«-ti»/«-pi»/«-yi»/«-mi» (Toshkent shevasida) kabi. Bunday k□p variantlilik adabiy tilga k□chirilmagan.

Shuni ham aytish kerakki, k□pchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Far□ona, Xeva—Urganch shevalarida — 5 ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining j- lovchi shevalarida, qarluq—chigil—uy□ur lahjasining Iqon-Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga yetadi. Hozirgi □zbek adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

#### **8- §. «Hozirgi □zbek adabiy tili» kursining b□limlari**

**1. Fonetika va fonologiya.** Bu b□limlarda hozirgi □zbek adabiy tilining fonetik-fonologik sathiga oid tizimlar (vokalizm, konsonantizm), segment va supersegment birliklar (fonema, b□□in, ur□u, intonatsiya, fraza, takt), prosodik elementlar (temp, tembr, ritm, melodika, pauza va b.lar), ularning til va nutqdagi roli haqida fikr yuritiladi.

*Bu haqda qarang:* HaHiwpoB X. OnbiT H3yHemffl iPKeKaioiriHX anajieKTOB B cpaBHenHH c yj6eKCKHM .THTepaTypHbiM 5i3biKOM. - T.: «OaH». 1975. c. 224-225; Ero xe: BocTOMno-KbiniaKCKHe (a>KeKaiO[UHe]' roBOpw H HX ywacTHe B pa3BHTHH y36eKCKoro - THTepaTypHoro fl3biKa. A/XH. - T., 1977, c. 46-47. *Yana qarang:* T□ychiboyev B. □zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T.: «□qituvchi», 1996, 174-b.

- 2. Grafika va orfografiya.** Bu b□iimlarda hozirgi □zbek adabiy tilining yozuv tizimlari (kirillcha va Jotincha □zbek yozuvlari), ularning asosiy bo komponentlari va belgilari, orfografiya prinsiplari va qoidalari xususida d) bahs yuritiladi.
- kaj **3. Orfoepiya.** Bu b□limda □zbek tilining t□□ri (adabiy) talaffuz yt meyoriari, uJarni beJgilovchi omillar haqida ma'Jumot beriladi.
- **4. Leksikologiya va frazeologiya.** Bu b□limlarda □zbek tiining Ju□at boyJigi, uning rivojlanish qonuniyatları, Ju□aviy biriiklarning qatlamlanishi, turiari, leksik-semantik va tematik gurahlari, leksema va frazemalarining semantik tarkibi, q□llanish xususiyatlari □rganiladi.
- ti k

**5. Leksikografiya.** Bu b□limda lu□atchilik, lu□at tiplari va turlari, iu□atlarining tuzilish prinsiplari, lu□at maqolalarining sxemalari, lu□atlarining amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

**6. Morfemika.** Bu b□limda s□z yoki s□zning grammatic shakllari tarkibidagi ma'no!i qismlar — morfemalar xususida, morfemalarining funksional-semantik, strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida ma'!umot beriladi.

**7. S□z yasalishi.** Bu b□limda □zbek tilining s□z yasash usullari, ularning s□z turkumlari b□yicha tavsifi, tarixiy va hozirgi s□z yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

**8. Morfologiya.** Bu b□lim grammaticaning bir qismi b□lib, unda grammatic ma'no va grammatic shakllar, shular orasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan grammatic kategoriylari, s□zlarni turkumlarga birlashtirish prinsiplari, har bir so ' jminating ma'no turlari, morfologik beigilari, gapdag'i funksional \. , otikasi haqida fikr yuritiladi.

**9. Sintaksis.** Bu b□lim grammaticaning ikkinchi qismi b□lib, unda s□z birikmalari vagap turlari, s□ziaming grammatic munosabatga kirishish y□llari □rganiladi.

**10. Punktatsiya.** Bu b□limda yozuv sistemasining uchinchi komponenti(birinchi komponenti — grafika, ikkinchi komponenti—orfografiya) xususida ma'lumot beriladi. (J sintaksis bilan parallel ravishda □rganiladi, chunki tinish belgilarining q□llanishi, asosan, gap ichida va nutqda namoyon b□Iadi.

### **Tekshirish savollari**

Hozirgi □zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari b□lgan?  
Bunday tarixiy iidizlar va jarayonlardan xabardor b□lishning amaliy ahamiyati nimada? Qadimgi turkiy til vokaiizmi qanday unlilardan tarkib topgan?

4. Eski turkiy va eski Ӯzbek adabiy tillari vokalizmi haqida nimalarni bilasiz?
5. Vokalizm tizimidagi kontrast juftiiklarni qanday tushunasiz?
6. Hozirgi Ӯzbek adabiy tili vokalizmida nechta unli bor? Ular y Ӯ Ӯ onlik-ingichkalik belgisiga k Ӯ ra kontrast juftliklarni hosil qildimi? 7.
- Qadimgi turkiy til konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan?
- Eski Ӯzbek adabiy tili konsonantizmi-chi? 8. Hozirgi Ӯzbek adabiy tili va qadimgi turkiy til undoshlari tizimining asosiy farqlari nimada? 9. Qadimgi turkiy tildan hozirgi Ӯzbek adabiy tiligacha b Ӯ lgan tarixiy taraqqiyot jarayonida fonemalarining paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarida qanday Ӯzgarishlar yuz bergan? 10. Singarmonizm haqida nimalarni bilasiz? Hozirgi Ӯzbek adabiy tilida singarmonizm bormi? Shevalarda-chi? 11. Qadimgi turkiy tildan hozirgi Ӯzbek adabiy tiligacha b Ӯ lgan davrda tilning Ieksik sathida (lu Ӯ at boyligida) qanday Ӯzgarishlar b Ӯ lgan?
12. Tilning grammatic qurilishida b Ӯ lgan Ӯzgarishlar haqida nimalarni bilasiz? 13. Hozirgi Ӯzbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida qanday fikrlar bor? 14. Ӯzbek tili shevalari qanday iahjalarga birlashadi? 15. «Hozirgi Ӯzbek adabiy tili» kursining qanday b Ӯ limlari bor?

### *Tayanch tushunchalar*

**Fonetik-fonologik sath** — til ierarxiyasining tovush tizimidan iborat quyi po Ӯ onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, b Ӯ Ӯ in, ur Ӯ u, ohang va b.lar.

**Leksik sath** — til ierarxiyasining Ju Ӯ atJ idan iborat yuqori po Ӯ onasi: s Ӯ zlar, iboralar, ularning turli qatlaman.

**Grammatik sath** - til ierarxiyasining morfologik va sintaktik birliklar-dan iborat eng yuqori po Ӯ onasi: s Ӯ z turkumlari, grammatic ma'no va gram-matik shakllar, s Ӯ z birikmalari va gap, ulaming turlari va konstruksiya modellari.

**Vokalizm** — unli fonemalar tizimi.

**Konsonantizm** — undosh fonemalar tizimi.

**Divergensiya** — til strukturasidagi Ӯzgarishlar ta^sirida bir fonema-ning ikki fonemaga b Ӯ linishi. Masalan, «k»ning «k»va «q»ga ajralishi.

**Konvergensiya** - tarixiy taraqqiyot natijasida ikki fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski Ӯzbek tillarida alohida-alohida fonemalarb Ӯ lgan «e» va «o» unlilari shu qonuniyat asosida hozirgi Ӯzbek adabiy tilida bitta « Ӯ » fonemasiga birlashgan.

**Pozitsion xususiyatlar** — nutq tovushlarining s Ӯ z tarkibidagi Ӯ rni (unlining ur Ӯ ui yoki ur Ӯ usiz b Ӯ Ӯ inda, undosh tovushning kuchli yoki kuchsiz pozitsiyada b Ӯ lishi), shu omil ta'sirida yuz beradigan hodisalar.

**Sintagmatik xususiyat** - so"z yoki b□in tarkibida tovushlarning zanjirsimon joylashuvi. birin-ketin kelishi, gorizontal chiziq b□ylab joylashuvidan kelib chiqadigan xususiyatlar.

**Singarmonizm** — s□zning asosi va aflatik tarkibidagi unlilarning □zaro uy□unlashuvi, garmoniyasi.

**Sheva** - muayyan tilning □ziga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlariga ega b□lgan eng kichik qismi.

**Lahja** - fonetik, leksik va grammatic umumiylilik asosida birlashgan sheva va y□indisi. U diaiect nomi bilan ham ataladi.

## FONETIKA VA FONOLOGIYA

### FONETIKA

**Adabiyotlar:** 4 [14-16], 10 [17-22], 16 [3-5], 27 [12-13].

#### 9- §. Fonetikaning obyekti

Fonetikaning obyekti — tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari, b□in, ur□u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni □z ichiga oladi.

#### 10- §. Fonetikaning maqsadi va vazifalari

**Fonetikaning maqsadi** - fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini □rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi **vazifalarini** belgilaydi: a) tovush, urg"u. melodika kabi birlikJarning yuzaga kelish qonuniyatlarini □rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlarva shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; d) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; e) talabalarda fonetik tahsil k□nigmalarini shakllantirish; f) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma"lumot berish.

#### 11 - §. Fonetik birliklarning turlari

Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga - segment va supersegment birliklarga b□linadi: a) **segment birliklarga** nutq tovushlari va b□in kiradi. Bunday birliklar s□z yoki morfemalar tarkibida birin-IX

ketin keladi, yotiq (gorizontal) y<sup>□</sup>nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: *kitob* s<sup>□</sup>zidagi 5 ta tovush (k, i, t, o, b) va ikkita b<sup>□</sup><sup>□</sup>in (*ki-tob*) segment birliklar, demak, shu s<sup>□</sup>z tarkibidagi qismlar sanaladi; b) **supersegment birliklarga** ur<sup>□</sup>u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar s<sup>□</sup>zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador b<sup>□</sup>lib, ularni s<sup>□</sup>z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasawurqilib b<sup>□</sup>lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa (M. Mirtojiyev) deb nomlash hollari ham uchraydi.

## 12- §. Fonetik birliklarning tildagi vazifalari

Fonetik birliklarning tildagi vazifalari quyidagilardan iborat: 1) **shakllantiruvchi vazifa** {ruscha: *o6pa3yfou,aa* (*fiyHictyw*), Bunda fonetik birliklarning s<sup>□</sup>z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida qurilish materiali sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Chunonchi, *paxta* s<sup>□</sup>zining tarkib topishida 5 ta tovush (p, a, x<sub>v</sub>t, a), - ikkita b<sup>□</sup><sup>□</sup>in (*pax-ta*) va bitta s<sup>□</sup>z ur<sup>□</sup>usi (*paxta*) «qurilish materiali» vazifasida qatnashgan, bu birliklarning shu tartibda joylashtirilishidan *paxta* s<sup>□</sup>zining tovush qiyofasi — **fonetik s<sup>□</sup>z** shakllangan. Ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida ustama hodisa sifatida qatnashadi: darak, s<sup>□</sup>roq va buyruq gaplarning □ziga xos intonatsiyalari, she'riy misralardagi ohang tovlanishlari bunga misol b<sup>□</sup>ladi;

2) **tanituvchi vazifa** (aischa: *ono3HaecmejWHan cpyHKU,ua*). Bunda fonetik s<sup>□</sup>z tarkibidagi fonetik birliklarning shu s<sup>□</sup>zni va uning ma'nosini «tanib olish» va «eslab qolish» uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi: s<sup>□</sup>z va uning ma'nosi (yoxud morfema va uning ma'nosi) shu s<sup>□</sup>zning (yoki morfemaning) fonetik qobi<sup>□</sup>i tufayligina inson xotirasida doimiy yashaydi. Masalan, inson *paxta* s<sup>□</sup>zini (fonetik s<sup>□</sup>zni) eshitganda yoki □qiganda, uning xotirasida «□□za □simligining oq tolali yumshoq mahsuli», *taxta* s<sup>□</sup>zini eshitganda yoki □qiganda esa «□□ladan uzunasiga tilib olingan yassi yo□och b<sup>□</sup>lagi» esga keladi, bu hol har bir s<sup>□</sup>zning fonetik qobi<sup>□</sup>i bilan shu s<sup>□</sup>zning mazmun planidagi ma'nolar □rtasida doimiy aloqa borligidan (shakl va mazmun birligidan) dalolat beradi. K<sup>□</sup>pchilik s<sup>□</sup>zlarning fonetik tarkibi □zaro farqli b<sup>□</sup>lishini hisobga olsak, bunday farqlar s<sup>□</sup>z ma'nolarini tafovutlash uchun xizmat qilishi ham ma'lum b<sup>□</sup>ladi: «*qishloq»n\ «pishloq»dan, «□o'za»ni «ko'za»dan, «uy»ni «kuy»dan farqlash imkoniy yaratifikasi. Demak, s<sup>□</sup>z va grammatik formalar □zining tovush materiyasi tufayligina nutqda ma'lum ahamiyat kasb etadi. • ovushgina s<sup>□</sup>z yoki s<sup>□</sup>z shaklini eshituvchi uchun borliq tusiga kiritadi. (Bu haqda darslikning «Fonologiya» boimida toiaroq maiumot beriladi.)*

### 13- §. Fonetika fanining turlari

**1. Umumiy fonetika.** Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy b<sup>□</sup>lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiatи, anatomik-fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-flinksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari fonema tiplariga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (zidlanishlar) va korrelatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos b<sup>□</sup>lgan bunday nazariy masalalarni k<sup>□</sup>rish umumiy fonetika predmeti sanaladi.

□zbek tilshunosligida umumiy fonetikaga oid ma'lumotlar «y36eKCKHH 33biK» (V.V. Reshetov, 1959), «Umumiy tilshunoslik» (N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.Abduaazizov, 1979), «Umumiy tilshunoslik\* (Usmonov S., 1972) kabi asarlarda berilgan.

**2. Xususiy fonetika.** Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: □zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini □rganishda umumiy fonetika xulosalariga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida t<sup>□</sup>plangan tajribalarga tayanadi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

a) *tavsify fonetika*. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan bo<sup>□</sup>lanmay) □rganiladi. Xususan, «Hozirgi □zbek adabiy tili fonetikasi» ham aslida tavsify fonetikadir, chunki unda □zbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mayjud b<sup>□</sup>lgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, ur<sup>□</sup>u, b<sup>□</sup><sup>□</sup>in va hokazolar) hozirgi □zbek tilida qanday b<sup>□</sup>lsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bo<sup>□</sup>lanmay) □rganiladi.

Hozirgi □zbek adabiy tilining tavsify fonetikasi «Hozirgi □zbek adabiy tili» kursi b<sup>□</sup>yicha nashr etilgan ko<sup>^</sup>pchilik darsliklarda, shuningdek, «y36eKCKHJj H3MK» (VVReshetov, 1959), «OCHOBH cpoHeraKH H ipaMMaTHKH y36eKCKoro H3biKa» (VVReshetov, 1965), «06ma# xapaKTepncTHKa ocobeHHCocTen y36eKCKoro BOKa/iH3Ma» (VVJleshetov, 1949), «<→OHeTH-qecKaa CHCTeMa y36eKCKoro JIHTepaTypHoro A3biKa», ADD (Mahmudov A., 1980), «Hozirgi □zbek adabiy tili»dan metodik k<sup>□</sup>rsatmalar va konspektiv kurs: fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya» (Tursunova T., Jamolxonov H., 1981), «□zbek tili fonetikasi» (Mirtojiyev M.M., 1991, 1- nashri; 1998, 2- nashri), «□zbektili» (Otamirzayeva S., Yusupova M.,

2002), «Hozirgi Ӯzbek adabiy tili» (Mirtojiyev M.M., 2004), «Hozirgi Ӯzbek adabiy tili» Ӯquv qўllanmasi, 1- qism (Jamolxonov H., 2004) kabi ishlarda hamda «CoHeTaHne niacHbix H coniacHHX B coBpeMeHHOM y36eKCKOM rjnxepaTypHOM «3biKe» (AJshayev., 1985), «PenyKUHfl niacHbix B y36eKCKOM M3biKe: THnbi, doyHKHHH, nporpaMMHpOBaHHe» (SAtamirzayeva, X.Yuldasheva, Dj.MamatoV, 1985) kabi maqlolalarda bayon etilgan;

b) *tarixiy fonetika*. Bunda ayrim olingen bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan boӮlab Ӯrganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik- fonologik tizimida yuz bergan tarixiy Ӯzgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. Shunga kўra u *dioxron fonetika* deb ham yuritiladi.

Ӯzbek tilshunosligida Ӯzbek tilining tarixiy fonetikasiga oid ma'lumotlar V.V. Reshetov, F. Abdullayev, ӮAbdurahmonov, A. Rustamov, E.Fozilov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov, S. Ashirboyev, H. Ne'matov, Q. Sodiqov, B. Tўychiboyev kabi tilshunoslarning ishlarida berilgan: «Qadimgi turkiy til» (Abdurahmonov Ӯ., Rustamov A., 1982), «OoHeTHKO-MopqojiiorHHeckHe oco6eHHOcTH H3biKa Ajinuiepa HaBan», AjJJ, (Rustamov A., 1966), «HeKOTopbie Bonpocbi HSTOPHMCCCOH dpoHeTHKH y36eKCKoro 5i3biKa» (A.Rustamov, 1985), «K HSTOPHH yipaTbi CHHrapMO-HH3Ma B y36eKCKOM H3biKe» (F. Abdullayev, 1985), «OoHeraHecKHe H MopqojioruqecKHe oco6eHHOCTH H3HKa «Xn6aTyji xaKaHK», AKJ (K.Maxmudov, 1964), «Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari haqida» (Mahmudov Q., 1972), «Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili» (Fozilov E., 1969), «XIV asr Xorazm yodnomalari» (Fozilov E., 1973.), «Qutbning «Xusrav va Shirin\* dostoni va Ӯzbek adabiy tili» (Ashirboyev S., 1997), «Ӯzbek tili tarixiy fonetikasi\* (Ne'matov H., 1992), «Ӯzbek tili tarixiy fonetikasi» (Tўychiboyev B., 1990), «Ӯzbek tilining taraqqiyot bosqichlari\* (Tўychiboyev B., 1996), «XI-XV asr uyӮur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari\* ( Sodiqov Q., dokt. disser-tatsiyasi, 1992), «Ӯzbek adabiy tili tarixi» (Muxtorov A., Sanaqulov U., 1995), «AjiHuiep HaBan KaK OCHOVOHOJIOJKHHK y36eKCKoro jiHTepaiypHoro «3MKa» (A.K. Borovkov, 1946.), «AtovushiningXVasrdagi sifat xususiyatlari haqida» (E. Umarov., 1982), «XV asr Ӯzbek tili unlilari haqida» (E. Umarov, 1982), «rpaMMaTHKa CTapoy36eKCKoro a3HKa» (A.M.Shcherbak, 1962) kabi ishlar shular jumlasidandir.

**3. Qiyoziy fonetika.** Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, Ӯzbek, qozoq, qirӮiz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiyligi va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi: «CpaBHHTejibHa>i cpoHeTHKa TK>PKCKHX H3WKOB»(A.M. Shcherbak, 1970), «CpaBHHTejibHO-

S□zning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar dastlab ikkita katta guruhga — hozirgi leksik ma'nolarga va avvalgi leksik ma'nolarga ajratiladi.

Hozirgi leksik ma'no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma'nolar esa til taraqqiyotining □tmishdagи bosqichlariga xosdir. Shuning uchun hozirgi leksik ma'no tavsify semasiologiyada, avvalgi leksik ma'nolar esa tarixiy (dioxron) semasiologiyada □rganiladi.

||- Hozirgi □zbek adabiy tili

161

## 98- §. Hozirgi leksik ma'nolar

Hozirgi leksik ma'nolar □z navbatida *bosh ma'no* va *hosila m□no* kabi tiplarga b□linadi, ular kontekst talabiga k□ra t□□rima 'no va k□khma ma 'no, nominativ (*nomlovchi*) ma 'no va *majozJy ma 'no, erkin ma 'no* va *bo□li ma'no* (yoki *bo□langan ma'no*) nomlari bilan ham ataladi. Tildagi leksik polisemiya ana shu bosh va hosila ma'nolar tizimiga asoslanadi. Masalan, «□zbek tilining izohli lug'ati»da [121, -136-138] **bosh** leksemasing 15 ta leksik ma'nosini va yana bir necha ideomatik ma'nolari (frazemalar tarkibidagi q□llanishi) izohjangan: 1. Tananing b□yindan yuqori (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi... 2. K□chma s.t. Aql-xush, miya. 3. Boshliq, rahbar. *Yaxshi yigit - davraning boshi...* 4. Sft. Boshchilik, rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki yuqori. *Bosh vrach...* 5. Sft. Eng muhim, asosiy. *Bosh masala...* 6. Sft. Engoldingi, birinchi. *Boshkelin...* 1. K□chma. Odam, kishi. *Bir boshga bir □lim...* 8. (*Snq sonlar bilan*) chorva hisobida har bir adad jonivor. □n bosh ot. *Ikki bosh q□y...* 9. Tik narsalarning tepaqismi, uchi, ch□qqisi. *Shamol b□lmasa daraxtning boshi qimirlamaydi...* va b.lar.

**Bosh ma'no** s□zning semantik tarkibidagi boshqa ma'noIarning □sib chiqishi *uchun* asos b□lgan ma'nodir. Masalan, **tulki** s□zining bosh ma'nosini «Itlarturkumiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvondir». U t□□rima ho (voqelik bilan bevosita bogianganligi uchun), *nominativ ma 'no* (voqelikni, predmetni nomlaganligi uchun), *erkin m□no* (realishuvi ma'lum kontekst, s□z qurshovi bilan cheklanmaganligi uchun) sanaladi.

**Hosila ma'«o** bosh rna'nodan taraqqiy etib chiqqan ma'nodir. Masalan, **tulki** s□zining hosila ma'nosini «□taketgan ayyor, makkor odam»dir. Bu ma'no ayrim kishilarningxatti-harakatini tulkinining hiylakorligiga □xshatish, nisbatlash orqali (metafora y□li bilan) yuzaga keltirilgan: *Haqiqatda esa bu tulkilar uni laqillatadilar.* (A.Q.)

S□zning hosila ma'nosini kontekst taiabidan kelib chiqib, *ko 'chma ma 'no* (s□zningt□□ri ma'noda ifodalangan narsa-hodisalardan boshqa narsalarga nom b□lib k□chganligi uchun), *majoziy ma 'no* (mavhum tushuncha yoki □oyalarni konkret obrazorqali ifodalashga xizmat qilganligi uchun), *bo□li m□no* (reallashuvi ma'lum kontekst, s□z qurshovi biian cheklanganligi uchun) degan nomlar bilan ham ataladi.

I zo h . Hosila ma'no ayrim hollarda bosh ma'no darajasiga ham ega b□lib qoladi. Buni **til** leksemasi ma'nolari misolida k□rsa b□ladi. Qiyos qiling: **til** (1) - «maza-ta'm bilish xususiyatiga ega anatomik a'zo» (bosh ma'no); **til** (2) - «kishilarorasida fikrashish vositasi vazifasini bajaruvchi sistema, ijtimoiy hodisa» (hosila ma'no); **til** (3) - «Nutqning □ziga xos

wisusiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib turadigan turi; ilmiy uslub, badiiy uslub va b.lar» (hosila ma'no); **til** (4) - «harbiy asir» (hosila ma'no); **til** (5) ~ «asbob, mexanizm va sh.k.ning osilib, qimirlab turadigan qismi»: *a[n]iroqning tili* (hosila ma'no) kabi. Keltirilgan ma'nolar □rtasida quvidagi munosabatlar bor: **tiJ** leksemasining I- ma'nosи 2 va 5- ma'nolarga nisbatan bosh ma'nodir; **til** leksemasining 2- ma'nosи shu s□zning 3, 4- ma'nolarga nisbatan bosh ma'no b□ladi, ammo 1- ma'noga nisbatan u hosila ma'nodir. Shunga k□ra bu ma'nolar tizimida I- ma'no **t□n□ich bosh ma'no**, 2- ma'no esa **nisbiy bosh ma'no** sanaladi (27, -90).

### 99-§. Avvalgi leksik ma'nolar

Avvalgi leksik ma'nolar ham dastlab ikki turga b□linadi: 1) eski leksik ma'no; 2) etimologik leksik ma'no. Bulardan birinchisi tarixiy semasiologiyada, ikkinchisi esa tilshunoslikning etimologiya b□limida □rganiladi.

**Eski leksik ma'no** leksemaning □tmishda q□llangan, hozir esa arxaiklashgan ma'nosidir. Masalan, **yo□och** leksemasining «daraxt» ma'nosи eski leksik ma'no (semantik arxaizm, arxaizm-ma'no) sanaladi. Bu s□z «daraxt» ma'nosida eski turkiy til va eski □zbek tilida q□llangan: (yi□och), [107, 1-t., -310]; *yi□och, archayi□ochi*<sup>ns</sup>. Hoziresau shu ma'nodadeyarli ishlatilmaydi (tarixiy mavzularda yozilgan badiiy, ilmiy asarlartili bundan mustasno, albatta).

**Etimologik leksik ma'no** - leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos b□lgan dastlabki ma'no. U **ma'no etimoni** deb ataladi. («Etimon» bahsiga qarang).

## ETIMON

**Adabiyotlar:** II [28-30], 103 (529), 125 {136}.

### 100- §. Etimon haqida ma'himat

**Etimon** (yun.: *etymon* — «haqiqat») — muayyan leksemaning kelib chiqishiga asos b□lgan s□z (tub yoki yasama) yoxud s□z birikmasi: *qatun* > *xatun* > *xotin* (etimon — *qatun*), *bu kun* > *hukun* > *bugun* (etimon - «*hu kun*» s□z birikmasi), *qbishla□* > *qbishlaq* > *qishloq* (etimon - *qushla□*) kabi. Demak: a) hozirgi □zbek tilidagi *xotin* leksemasining shakl etimoni

<sup>ns</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Asarlar. Uchjildiik. 2-jild. Boburnoma. - T.: «Badiiy adabiyot», 1965, 207-b.

**qatun**, ma'no etimoni esa «yuqori martabali kishining umr yoldoshi» bigan. Hozir bu s<sup>o</sup>zning ma'nosi kengaygan: u «biror erkak kishining umryldoshi»ni va umuman «ayol»ni ham anglatadi<sup>109</sup>; b) *bugun* s<sup>o</sup>zining shakl etimoni «bu kun» s<sup>o</sup>z birikmasidir, ma'no etimoni esa «s<sup>o</sup>z borayotgan paytda kechirilayotgan yoki kechirilgan kun» haqidagi axborot, (121, I- t, -144]; d) *qishbq* leksemasining shakl etimoni «qwshJag»dir, u quyidagi morfemalardan tarkib topgan: *qwsh* (fasl) + *la* (fe'l yasovchi) + + (ot yasovchi). Keyinchalik etimon tarkibida fonetik <sup>o</sup>zgarishlaryuz bergen: *qwshla* > *qbishlaq* > («<sup>o</sup>» undoshi «q»ga <sup>o</sup>tgan) > *qishloq* («a» unlisi «o»ga <sup>o</sup>tgan, «bi» unlisi qattiqlik belgisini y<sup>o</sup>qtgan)<sup>110</sup>; bu s<sup>o</sup>zning ma'no etimoni esa «aholi yozda dalalarga ketib, qishda qaytib kelib yashaydigan joy» ma'nosidir. Hozirbu ma'no kuchsizlanib, sezilmas holga kelgan, s<sup>o</sup>nib qolgan.

Ba'zan bir necha til s<sup>o</sup>zlarining etimoni bitta bigi ladi. Buni qadimgi hind tilidagi **sakkxara** s<sup>o</sup>zi taqdirda k<sup>o</sup>rish mumkin: u .y/w^r^<sup>o</sup>zbekcha, forscha), sheker (turkcha), suker (nemischa), suk<sup>o</sup>r (ukraincha), sukkar (arabcha), saxar (ruscha), sakxaron (yunoncha), .yw:(r(fransuzcha), sugar (ingлизча) leksemalari uchun dastlabki «poydevor» bigan; bu s<sup>o</sup>z (etimon) qadimgi hind tilida «sha<sup>o</sup>a»), «yirik qum» ma'nolarini anglatgan, keyinchalik, u metafora y<sup>o</sup>li biJan ma'no k<sup>o</sup>chirilishi asosida «shirin ta'mli qumsimon modda», «qumsimon shirinlik» ma'nosigaega bigan. Demak, **sakkxara** s<sup>o</sup>zining «yirik qum» ma'nosi yuqorida keltirilgan barcha s<sup>o</sup>zlar uchun ma'no etimonidir.

Etimon vazifasini bajargan s<sup>o</sup>zning shakli va ma'nosi turli omillar ta'sirida k<sup>o</sup>pincha <sup>o</sup>zgarib ketadi, bu hol uning asl «*musxa*»si va «ma'no»sini xiralashtirib q<sup>o</sup>yadi, ularni aniqlash va tiklash ishlarini ham qiyinlashtiradi. Hozirgi **kartoshka** leksemasi tarixida xuddi shunday bigan: *tartufolo* (italyancha: *tartyolo* — «yer q<sup>o</sup>ziqorini») s<sup>o</sup>zi nemis tiliga <sup>o</sup>tgach, *kartofiel* (kartofiel) shakliga kirgan, s<sup>o</sup>ng rus tiliga *kartofel* (*napmotpenb*) shaklida <sup>o</sup>plashgan, ammo rus dehqonlari uni soddalashtirib *kartoshka* deb q<sup>o</sup>llay boshlashgan, <sup>o</sup>zbek tiliga ham u shu shaklda kirib kelgan, farqi shundaki, rus tilida *kartofe/ a&ab'y* til birligi, *kartoshka* esa uningjonli s<sup>o</sup>zlashuvdag'i varianti biga, <sup>o</sup>zbek tilida *kartoshka* adabiy til birligi, *kartishka* esa uning jonli s<sup>o</sup>zlashuvdag'i varianti tarzida ishlatalmoqda. Demak: <sup>o</sup>zbek tilidagi *kartoshka* s<sup>o</sup>zining shakl etimoni italyancha **tartufolo** s<sup>o</sup>zi, ma'no etimoni (etimologik ma'nosi) esa «yer q<sup>o</sup>ziqorini»dir: ma'lumki, kartoshkaning

<sup>109</sup> Qarcmf.: Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining qisqa etimologik lu<sup>o</sup>ati. 4-qism. - T.: «Univrsitct», 1999, 8- b. <sup>110</sup> Rahmatullayev Sh. K<sup>o</sup>rsatilgan lu<sup>o</sup>at, 105-196-b.

vatani - Janubiy Amerika. U yerdagi mahalliy hindular kartoshkani *patata* deyishgan, shu nom bilan u XVI asrda Ispaniyaga keltirilgan, keyinchalik kartoshka Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqalgan, natijada Yevropadagi ayrim xalqlar kartoshkaga yangi nom qo'yishgan: fransuzlar uni *pom de terre* - «yer olmasi» deb, italyanlar esa *tartufolo* («yer qo'ziorini») deb atashgan, bunda uning shakli qo'zioringa oxshash bolganligi, ammo qo'ziorindan farqli ravishda yer ustida emas, turoq orasida yetilishi nazarda tutilgan».

Leksemalarning etimonini aniqlash biian tilshunoslikning *etimologiya* bolimi shuullanadi. Bunday tadqiqot natijalari til sistemasi va strukturasidagi turli jarayonlarni hamda sozlarning etimologik ma'nolarini aniqlashda, etimologik lugatlartuzishda ahamiyatlidir (darslikning «Leksikografiya» bolimiga ham qarang).

Siz etimologiyasining *ilmiy* (faktlar tahliliga asoslangan), *soxta* (ayri ilmiy) va *xalq etimologiyasi* (xalqning taxminiga tayangan etimologiya) kabi turlari bor.

### **Tekshirish savollari va topshiriqlar**

1. Leksemaning hozirgi va avvalgi ma'noiari qanday farqlanadi? 2. Bosh ma'no nima? Hosila ma'no-chi?
3. Kontekst talabiga kora ma'noning qanday turlari zaro farqlanadi? 4. Tinson bosh ma'no va nisbiy bosh ma'no haqida ma'lumot bering. 5. Avvalgi leksik ma'nolarning qanday turlari bor?
6. Eski leksik ma'no va etimologik leksik ma'no haqida malumot bering.
7. Etimon nima?
8. Shakl va ma'no etimonlari haqida ma'lumot bering. 9. Tilshunosiikning qaysi bolimi leksemalarning etimonini aniqlash bilan shuullanadi?

### **Tayanch tushunchalar**

**Hozirgi leksik ma'no** - leksemaning hozirgi ozbek tilidagi ma'nosи.

**Avvalgi leksik ma'no** - leksemaning otmishdagи leksik ma'nosи.

**Bosh ma'no** - leksemaning semantik tarkibidagi hosila ma'nolarning o'sib chiqishiga asos bolgan ma'no.

**Hosila ma'no** - bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan ma'no.

**Eski leksik ma'no** - leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan ma'nosи.

*Bu haqdagi qarang:* Oejui M. KaK po>Kzai roin>Kmiyi ciona.-M: «npoceiuenne», 1% 4, e. 47-48.

**Etimologik leksik ma"no** — lcksemaning kelib chiqishida uning mazmun pianiga asos b□lgan dastlabki ma no. U ma no etimoni deb ham ataladi.

**Shakl etimoni** — leksemaning yuzaga kelishida asos boiib xizmat qilgan dastlabki shakl.

## LEKSIK SINONIMIYA

**Adabiyotlar:** 4 |72-73J, II J31-35|, 19 1105-110|, 26 |39-47|, 27 1107-113|, 32 |68~72J, 93 |24-28), 124 |3-6|.

### 101-§. Leksik sinonimiya

**Leksik sinonimiya** leksemalarning bir xil ma no anglatishiga k□ra guruhanishidir: *yelka, kift, □miz* (birinchi guruh); *in, uya, oshyon* (ikkinci guruh); *nur, shu la, yo□du, ziyo* (uchinchgi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qator/ar deb* nomlanadi. Har birsinonimik qatorda:

a) leksemalarning denotativ ma nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy b□yoqlari, subyektiv baho, q□llanish doirasi) har xil b□ladi. Masalan, *ozod, erkin, hur, sarbast* leksemalari bitta denotatni - «□z erki, haq-huquqiga egalik»ni ataydi, biroq ularda □zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bor. Xususan, **erkin** icksemasi bir qadar betaraf ma noli b□lsa, **ozod** leksemasida k□tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: *Erkin nafas olmoq* |□TIL, 2- tom, -4511. *Toki, hiz,dan olis avlodlarga ozod va obod vatan qo/sinl* (LKarimov). *Yashnagan el tillarda doston, Qutlu□notni hur 0'z.bekiston* (M.Sh.). *Podshohning nikohida h□lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisohlashmay, k□pincha ularni q□lga olib, sarbast yashaycilar* (O.);

b) ifoda semalari ba'zan darajalanadi: *yuz, bet, aft, bashara, turq ieksemalarining barchasida* («yuz»dan boshqalarida) salbiy b□yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy b□yoqning ifodalanish darajasi harxil: u «bet»dan «turq»qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: *Ubetlari yumdalangan, oppoq sochlari yuligan bu telba xotinni □zning qirq yillik umr y□ldoshiga □xshata olmadi.* (M.lsm.), *Sherbekning k□ziga X□jabekovning aftidan nahs tomayotgandek jirkanch b□lib k□rinib ketdi* (S.An.), *U hir k□ngli, horib, muttaham qozining tumsha□iga tushirgisiyo iflos basharasiga tupurgisi keldi.* (Mlsm.). *Devor ustida turgan □n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko 'chirib olib, MuWa Norqo 'ziga o 'xta/di:* «*Xu □l, turqing qursinU* (A.Q.);

d) ifoda semalari *bilmagan*, betaraf ma'no!i leksemalar sinonimik qatorning **dominantasi** sanaladi. Chunonchi, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *turq* (dominanta - **yuz**); *nur*, *shu 'la*, *yo du*, *ziyo* (dominanta - **nur**); *yot iz*, *yakka*, *taho* (dominanta - **yol iz**) kabi. Bulardan **yuz** (birinchi qatorda), **nur** (ikkinchi qatorda) **vayol iz** (uchinchchi qatorda) betaraf ma'nolidir;

e) leksemalarning turkumlik semalari bir xil *b ladi*, bu hol sinonimlarning bir s o z turkumiga birlashishini taqozo qiladi; *bahor* va *koklam* (ot), *chiroyli* va *g ozal* (sifat), *s ozlamoq* va *gapirmoq* (fe'l) kabi.

Yuqorida xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har xilligidan keiib chiqib, leksik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Ma'no sinonimlari** (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, *achchiqlanmoq*, *azablanmoq*, *qahrlanmoq* leksemalari «*azabi kelmoq*» ma'nosini bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u «*achchiqlanmoq*»dan «*azab!anmoq*»qa, «*azablanmoq*»dan esa «*qahrlanmoq*»qa qarab kuchayib boradi.

2. **Uslubiy sinonimlar** (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosini ijobjiy yoki salbiy *b yoqlar* (uslubiy semalar) bilan qoplangan *b ladi*, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq*, *iljaymoq*, *irjaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no - «*xovoz chiqarmay miyi ida kulish*» hodisasini nomlash bor, ammo shu mano **jilmaymoq** leksemasida biroz ijobjiy, *iljaymoq* leksemasida esa biroz salbiy *b yoq* bilan qoplangan, bu salbiy *b yoq irjaymoq*, *tirjaymoq*, *hhshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarida yana-da ortib boradi. Qiyos qiling: *U hamisha kulib*, *jiImayib turadigan mehribon chehrani kormadi* (M.lsm.). *Sh xroq qiz*, *yigitlar ilja yib*, *bir-biriga koz qisib q yishadi* («*Mushtum*»). *Fosih qfattdi b lsa ... qora duldu ustida kuydirgan kalladay irjayib tirar edi* (M.hm.). *Fazliddin tirjayib*, *egri-bugri tishlarining oqini k rsatdi* (O.) *Lekin Murzjn hayron qolib: «U emas-ku!» — degan edi, kommandant: «Adashmang, aynan zi»*, ~ dedi surbetlarcha *ishshayib*. (Sh.). *Ycryutgurlar, nima qilib irshayib turibsizlar, huv, koz aring teshilsin!* - dedi xotinlardan *biri* (M.Os.).

3. **Nutqiy sinonimlar** — nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, *ozgina*, *picha*, *sal*, *xiyoljinday*, *qittay*, *jichcha* qatoridagi *ozgina* leksemasi nutqning barcha k rinishlarida (adabiy nutqda ham, s ozlashuv nutqida ham) q llana olgani holda, *picha*, *xiyol*, *jinday*, *qittay*, *jichcha* leksemalari faqat s ozlashuv nutqiga xoslangandir.

## 102- §. Kontekstual sinonimiya

**Kontekstual sinonimiya** — til birligi sifatida □zaro sinonim b□lмаган лексемаламинг ма'lум контекст доирасида (демак, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Масалан, **chinni** va **kosa** s□zлarining Jeksik ma'nolari bir xil emas: **chinni** «idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatalidigan oq loy»ni, **kosa** esa «piyo!adan kattaroq idish»ni ataydi. Demak, бiri «material»ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan «idish»ni anglatadi, shunga k□ra ularsinonim hisoblanmaydi, ammo ayrim shevalarda **chinni** leksemasi «kosa» ma'nosida ham q□llanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u **kosa** leksemasining sinonimiga aylanadi. Масалан, *Xoljonbika... xitoyi chinnida moy olib keldi* (J.Sh.)

Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa **muallif** leksemasining nutqdagи q□llanishida k□p uchraydi. Ma'lumki, **muallif** leksemasining sememasasi tarkibida «yozuvchi», «shoir», «hikoyanavis», «o'im», «ixtirochi» kabi qatorsemalar mujassamlangan. Demak, uning ma'no k□lami ancha keng. Kontekst ichida esa **muallif** sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Масалан, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda **muallif** leksemasi faqat «yozuvchi» ma'nosida q□llanadi, демак, **yozuvchi** leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki s□z sinonim b□la olmaydi, chunki ularning ma'no k□lami □zaro teng emas.

Tilda leksik ma'nolari □zaro teng b□lib, farqlovchi semalari b□Imagan leksemalar ham uchraydi: *s□roq* va *savol*, *xabarva darak*, *tema* va *mavzu*, *nom* va *ot* kabi. Tilshunoslikda bu tipdagи leksemalar *absolut sinonimlar* yoki *leksik dubletlar* deb ikki xil nomlanmoqda [27, -109].

## 103- §. Leksemalarning sinonim b□la olmaydigan holatlari

Quyidagi holatlarda leksemalar □zaro sinonim b□la olmaydi: I. Turli turkum leksemalari: ot bilan sifat, sifat bilan fe'l va b.lar. 2. Birturkum leksemalarida keng tushuncha nomlari bilan tortushuncha nomlari. Bunday holat k□proq terminologiyaga xosdir. Масалан, botanikada **tur** va **xil** terminlarining tushuncha doirasi teng emas: **tur** termini uru□dosh b□lgan bir necha **xil** va *navlarni* □z ichiga olgan takson tushunchasini ifodalaydi, ayni paytda **turlar** **turkumlarga**, **turkumlar** esa **oilalarga** birlashadi. Shunga k□ra **tur** va **xil**, **tur** va **turkum** kabi sinonimik qatorlar b□lishi mumkin emas.

3. Ijtimoiy mohiyati teng bilmag'an hodisa-voqeliklarning nomlari: *ao'n* va *sudya*, *mirshab* va *militcioner* kabilar. Bulardan qozi va mirshab leksemalari feodal tuzumdagi voqelikni, sudya va militcioner leksemalari esa hozirgi demokratik tuzumga xos voqelikni nomlaydi.

#### **104- §. Sinonimiyaning turli leksik qatlamlarga mansub boiishi**

Sinonimik munosabatda bilgan sozlar ozbek tili lug'at boyligining turli leksik qatlamlariga mansubdir. Masalan, *anglamoq* (ozb.) - *tushunmoq* (ozb.); *go 'zal (umumil)* ~ *suluv* (dial.); *husn* (ar.) - *chiroy* (f-t); *xat* (ar.) - *maktub* (ar.) — *noma* (f-t.); *kishi* (ozb.) - *odam* (ar.); *kilk* (ozb.) - *osmon* (t-f.) - *falak* (ar.); *analiz* (r-b.) - *tahlil* (ar.); *tema* (r-b.) - *mavzu* (ar.) kabi.

#### **105- §. Sinonimiya va polisemiya**

Sinonimiya va poiisemiya ortasida ma'lum bollanish bor. Xususan, polisemantik leksema har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin: *olov* yoqmoq va yoqmoq (sinonimlar: *olov* va t), quyosh *olovi* va quyosh *harorati* (sinonimlar: *o/ov* va *haroraf*), *oilyv* yigit va ayratli yigit (sinonimlar: *olov* va ayratli): bunda *olov* leksemasining «predmet» semasi soznib, «belgi» semasi faollashgan.

Sinonimiar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta'sirli bilishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta'minlaydi.

Izoh. Sinonimiya hodisasi frazemalar va grammatick birliklar (morfemalar, soz birikmalari va gaplar) doirasida, shuningdek, leksema va frazema munosabatlarida ham uchraydi. (Bu haqda «Frazeologiya» va «Grammatika» bilmlariga qaralsin).

#### *Tekshirish savollari va topshiriqlar*

1. Sinonimiya nima?
2. Sinonimiya hodisasining soz turkumlariga munosabati qanday?
3. Sinonimik qator va dominantta haqida ma'lumot bering.
4. Leksik sinonimlarning qanday turlari bor?
5. Ma'no sinonimlari, uslubiy sinonimlar va nutqiylar qanday (arqlanadi)?
6. Qanday holatlarda kontekstual sinonimlar yuzaga keladi?
7. Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar haqida ma'lumot bering.
8. Qanday holatlarda leksemalar sinonimik munosabatda bilmaydi?

9. Sinonimiya va polisemiya ортасида qандай бўланыш бор?
  10. Sinonimiya hodisasi тиининг qaysi сатхларida uchraydi?
- II. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.

### **Tayanch tushunchalar**

**Sinonimiya** — leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga кўра гурухланishi.

**Sinonimik qator** (sinonimik уя) — bir ma'no anglatishiga кўра гурухJangan sinonim сўзлар yiқindisi.

**Dominanta** - sinonimik qatordagi betaraf ma'noli сўз.

**Ma'no sinonimlari** — bir umumiy ma'noga ega бўла-да, ma'no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

**Uslubiy sinonimlar** - leksik ma'nolari ijobjiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

**Nutqiy sinonimlar** - nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.

## **LEKSIK ANTONIMIYA**

**Adabiyotlar:** 4 [74], II [35-41], 26 [47-55J, 27 1120-126), 32 [73-741, 73 [56-58], 113 [5-17].

### **106- §. Leksik antonimiya**

Leksik antonomiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida гурухланышидир: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa* каби.

Antonimiya hodisasi, asosan, бирсоз туркуми leksemalari doirasida yuz beradi<sup>12</sup>.

**Sifatlarda:** а) hajm belgisiga кўра: *katta* va *kichik*, *baland* va *past*; б) harorat belgisiga кўра: *issiq* va *sovug*; д) yosh belgisiga кўра: *yosh* va *qari*; е) xarakter-xususiyat belgisiga кўра: *saxiy* va *xasis*, *botirva* *qo'rqoq*,

- Antonimlurni tuvsiflushdu vu tusvirlushdu кўпроq quyidagi aduhiyotlarga tuyanildi: Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. Ӯzbek tili antonimlarining izohli luqati. - T.: «Ўқитувчи», 1980.

Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Кўrsatilgan asar, 120-126-b.

Usmonov S. Antonimlar// «Ўzbek tili va adabiyoti masalalari» jurn., 1958, 2-сон, 38- b.

Hca6cKoe B.O. JlcKcn\*tecKasi anronnMHH B COBPCMCHHOM Y36CKCKOM HJMCK. AK71. - T., 1973.

LLlyKypoB P. JlcKcnKO-ccMariTwiccKasi npnpoaa aiiTOHMMOB. AKXt.—T., 1973.

*Yana shu muullij:* Ӯzbek tilida antonimlar. - T., 1977.

a^//va *ahmoq\* f) shakl belgisiga k□ra: *to□riwa egri\* g) maza-ta'm belgisiga k□ra: *achchiq* va *shirin* kabi.

**Payt, holat, miqdor ma'no'i leksemalar doirasida** ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* va *ertaga*, avva/va *keyin* (payt belgisiga k□ra); b) *tez*, va seA://i, arortg va *bemalol* (holat belgisiga k□ra); d) A:o/? va oz, *m□lva kam* (miqdor belgisiga k□ra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda birqadar munozarali b□lib qolmoqda.

**Otlarda:** a) belgi otlarida: *boy/ik* va *katnba□allik*, *botirtik* va *q□rroqlid*; b) qarama-qarshi tomon nomlarida: *sharq* va *garbjanub* va *shimol*; d) fasl nomlarida: *yozva qish*, *kuzva bahor*, e) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda: *kecha* va *kunduz*, *tong'a shom* kabi.

**Fellarda:** a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqmoq\* b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: *kengaymoq* va *toraymoq*, *k□paymoq* va *ozaymoq*, *sekin/ashmoq* va *tezlashmoq* kabi.

Ba'zan fe'lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishishi mumkin: □*qigan* va *bilimsiz*, □*qimagan* va *bilimli* kabi.

Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va feMlarda biroz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa b□lmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno).

## 107- §. Kontekstual antonimiya

**Kontekstual antonimiya** □zaro zid ma'ho ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida s□zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Buni quyidagi she'riy misralartahlilida k□rish mumkin:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur, Va  
lekin biri **tuz**, biri **qand** erur.

(A.Navoiy)

Aytur s□zni **ayt**, Aytmas s□zdan **qayt!**  
(A.Navoiy)

Sichqonlarga nisbatan Poyloqchiman  
**t□□riman.** K□rsam tekin g□sht ba'zan  
Chidolmayman - **□□riman.** (O.Q.)

Bu misoliarda qollangan **qand va tuz, ayt va qayt** hamda **t□□ri** va **□□ri** s□zлari aslida (tilda) antonimlar emas, ammo birinchi misofping ikkinchi misrasida **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qolfashi natijasida «*achchiq*» va «*shirin*» (demak, «*yaxshi*» va «*yomon*») ma'nolarini, ikkinchi misoldagi **ayt** va **qayt** ieksemalari «*ayt*» va «*aytma*» degan zid ma'nolarni, uchinchi misoldagi **t□□ri va □□ri** leksemalari esa «□g'ri emas» va «□□ri» ma'nolarini ifoda etib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda *f□□ri* leksemasi otlashgan).

Bunday qollanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u cleydi, bir bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

### 108- §. Antonomik juftlik

Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki s□z *antonomik juftlikm* hosii qiladi, ammo antonimikjuftlik juft s□z degan gap emas. Qiyos qiling: *katta* va *kichik* - antonimik juftlik (undagi har bir s□z — mustaqil leksema), *katta-kichik* — bitta juft s□z, u umumlashgan bitta ma'noga ega. Demak, *katta* va *kichik* zid ma'noli ikkita ieksema b□iganligi uchun, ular bir-biriga nisbatan antonimlardir, *katta-kichik* juft s□zi esa antonimlar ishtirokida yasalgan bitta leksemadir, binobarin, bitta leksemaning yol□iz □zi antonim hisoblanmaydi. Shuningdek, **bor** va **borma** kabi s□z shakllari ham antonimlardeb qaralmaydi, chunki antonim b□lish uchun, yuqorida aytib □tilganidek, albatta ikkita s□z (leksema) mavjud b□lishi, bu ikki s□z □zaro zid ma'no ifodalishi shart, **bor** va **borma** esa ikkita leksema emas, balki bitta **bor** leksemasining (fe'Ining) b□lishli (*bor*) va b□lishsiz (*borma*) shakllari, xolos. Demak, bunda ham antonimik juftlik y□q.

### 109- §. Enantiosemiya

**Enantiosemiya** bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit talabiga k□ra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, *ofat* s□zining ma'nosi «falokat», «balo»dir, ammo u «Ulu□ y□l» romanidagi birepizodda shu ma'noga zid ravishda «g□zal», «maftunkor» ma'nolarini anglatgan: «Adibaxon alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik k□zлari ustidagi ingichka qoshlari *ofat...*». Tabiiyki, bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

Оybек. Asarlar. 8- том. - Т.: □afur □ulom nomidagi Adabivot va sarfat nashriyoti, 1973, 176-b.

## 110- §. Antonimiya va polisemiya

**Antonimiya va polisemiya** hodisalari □zaro bo□liqdir: k□p ma'noli leksema □zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila lfia'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masaian: *achchiq qaiampirva shirin olma* birikmalarida **achchiq** va **shirin** leksemalari □zlarining *bosh* ma'holari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap* va *shirin gap* birikmalarida esa *achchiq* va *shirin* leksemalarining hosila (k□chma) ma'nolari antonimiyaga asos b□lgan.

## 111- §. Antonimlarni belgilash mezonlari haqida

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mczonlari b□yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa* va *singil, aka* va *uka*"<sup>4</sup> *to□a* va *xo/o*"<sup>5</sup> kabi s□zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha b□yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan EUsabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ s□zlar deb baholaydi, bum yuqoridagi leksemaarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-birigajuda yaqindirdebasoslaydi"<sup>6</sup>.

Fe'Ining b□lishli va b□lishsiz shakllari (*bordi* va *bormadi, boray* va *bormay, k□rgan* va *k□rmagan* kabi formalari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi"<sup>7</sup>, biroq tiishunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga q□shilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkoming □zi hali antonim emas. Masalan, *ayt* va *aytma, aytar* va *aytmas* kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni □zaro antonimlar deb b□lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki (b□lishli va b□lishsiz) shakllaridir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma'no munosabatidir...» [27, -122]. Antonimiyanı ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor"<sup>8</sup>. Mazkur darslikda ham antonimiyaga shu pozitsiyadan yondashildi.


Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan **mantiqiy markaz** prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu prinsipga k□ra ikkita ma'no □rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqjanadi va shu markazning ikki

<sup>4</sup> Usmonov S. K□rsatigan maqola, 38- b.


Tursunov U.. Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. K□rsatilgan asar, 121- b.<sup>15</sup>  
Hozirgi □zbek adabiy tili. 1-t, 1966. 146-b. <sup>16</sup> Isabekov B.O. K□rsatilgan  
dissertatsiya avloreferati, 8-b. <sup>17</sup> Hozirgi □zbek adabiy tili. 1-T. - T.: «FAN»,  
1966, 145-b.

Hca6cKOB B.O. JleKcnwecKaj aHTOHHMHJi B COBPCMCHIOM V36CKCKOM jnwKC. AKH,  
~ T,, 1973, c. 4.

tomonidan □rin olgan tushunchalar □zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Masalan, yt<sup>w</sup><sup>^</sup> bilan *bahor* orasida *qish* bor, demak, *kuzva bahor* leksemalari □zaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* — antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) y□q; shuningdek, *qish* bilan /Wzoratnonim emas (oraliq tushuncha y□q), *qish* bilan *yoz* ~ antonimlar (oraliq tushuncha — «bahor»); *kecha* bilan *bugun* — antonimlar emas (oraliq tuslumcha y□q), *kecha* va *ertaga* — antonimlar (oraliq tushuncha - «bugun»); □tmish va *hozir* antonimlar emas (oraliq tushuncha y□q), □tmish va *kelajak* — antonimlar (oraliq tushuncha — «hozir») kabi. Bunday munosabatlarni quyidagi sxema (chizma) tarzida ifodalash mumkin (mantiqiy markaz □rnida M harfi q□llangan).




Ba'zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtadan antonimik juftliklar b□ladi: **a'lo** (juda yaxshi) — **yaxshi-□rta (M)** — **yomon-juda yomon** kabi. Buni sxemada shunday ifodalash mumkin:



Bunday hollarda □z ma'nosiga k□ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan s□zlar □zaro antonimik juftlik hosil qiladi.

Fasl nomlari orasidagi antonimiyani quyidagi sxema tarzida ifodalash mumkin.



Antonimik munosabatda b<sup>□</sup>lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz b<sup>□</sup>ladi-yu, ammo uni nomlovchi s<sup>□</sup>zning □zi b<sup>□</sup>lmaydi. Masalan, /<sup>□</sup>g/ va <sup>□</sup>y/g/ 71 eksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus s<sup>□</sup>z tilda y<sup>□</sup>q, ammo oraliq hodisaning □zi bor: u kishining kulmasdan, yi<sup>□</sup>lamasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat (ekstralengvistik omil) mantiqiy markaz sifatida tasavvurqilinadi [113, -9-12].

### 112- §. Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi

Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu orqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlaydi.

Tinglar edim betinim  
Uzun tunlar yotib jim.  
Seza olardim kuchin,  
K<sup>□</sup>pi yol<sup>□</sup>on, k<sup>□</sup>pi chin.  
(H.O.)

**Ilmli** odamga ulu<sup>□</sup>lik hamdam, **Ilmsiz**  
qozini eshak deb aytma, Chunki bu  
eshakka tuhmatdir beshak.

(H.Deh).

Jahonning **shodligi** yi $\square$ ilsa butun,  
D $\square$ stlardiydoridan b $\square$ lolmas ustun. T $\square$ lur  
**□am-□ussaga** dilning kosasi, Qadrdon  
d $\square$ stlardan judo b $\square$ lgan kun.

(Rud.)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi  
— hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallartiligaxos uslubda  
ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

**Yozgi** mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **d $\square$ st** ortar,  $\square$ iybatdan — **dushman**.

**D $\square$ st** achitib gapirar, **dushman** — kuldirib.

**Yaxshi** d $\square$ st — jon ozi $\square$ i, **Yomon**  
d $\square$ st — bosh qozi $\square$ i.

**Donoga** ish — shonu shuhrat,  
**Nodonga** ish —  $\square$ amu kulfat.

Izoh. Antonomiya hodisasi frazemalar va morfemalar doirasida,  
shuningdek leksema va frazemalar munosabatida ham uchraydi (Bu haqda  
«Frazeologiya» va «Morfemika» b $\square$ limlariga qaralsin.)

### *Tekshirish savollari va topshiriqlar*

1. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
2. Antonimiya hodisasining s $\square$ z turkumlariga munosabati qanday?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
4. Qanday holatiarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
5. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
6. Antonimiya va polisemiya  $\square$ rtasidagi bogianishni tushuntiring.
7. Antonimiya hodisasi bilan bo $\square$ liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
8. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz*  
haqida ma'lumot bering. 9. Antonimlardan qanday uslubiy vosita  
sifatida foydalanimadi?

### *Tayanch tushunchalar*

**Antonimiya** - leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida  
guruhanishi.

**Antonimik juftlik** —  $\square$ zaro qarama-qarshi ma'noli ikki s $\square$ z. 176

**Kontekstual antonimiya** - tilda antonimik munosabatda boimagan sõzlarning ma'lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

**Enantiosemiya** - bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalaniishi.

**Mantiqiy markaz** - ikki ma no ñrtasidagi oraliq tushuncha.

## LEKSIK OMONIMIYA

**AdabiyotJar.** 4 [70-72], 11 [41-45], 26 [29-39], 32 [77-81], 112 [5-15].

### 113- §. Leksik omonimiya

**Leksik omonimiya** - leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, *ot* («olov») - *o't* («maysa»), *kamar* («qayish, kõndan ishlangan belbog») - *kamar* («daryo, toplarda suv ñyib ketgan chuqr joy») kabi.

Leksik omonimiyyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar.

I. **Omonimlar** shakli birxil, ma'nolari harxil (ñzaro bolanmagan) leksemalardir (yuqoridagi misollar). ular *omonim omoleksemalar* deb ham ataladi. (27,128-b.). Bunday omonimlarning kõpchiligi birliz turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bõldi. Qiyos qiling: *ot* («ism») — *otim, oting, oti; otmi, otning, ofga...* kabi, of («hayvon») — *otim, oting, oti; otni, otning, otga...* kabi. Yana: *bõsh* (slfat) — «ichiga hech narsa solinmagan»: *bõsh chelak* kabi; *bõsh* (sifat) — «tarang tortilmagan»: *arqonni bõsh tortib boñlamaq* kabi.

Bu tipdagи omonimlar (omonim omoleksemalar) turli sõz turkumlariga mansub bõlishi ham mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan sõzlar shakllanish tizimiga ega bõlmashliklari kerak. Masalan, *tabiiy* (sifat) va *tabiiy* (modal sõz): 1) *U tabiiy fanlarga kõproq qiziqadi*. (Bu gapda *tabiiy* -sifat, aniqlovchi); 2) *Sõzamol, badavlat qori toñaning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo 'ichi tushunmad* (Bu gapda *tabiiy* — modal sõz, kirish sõz).

2. **Omoformalar** ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular *omoforma omoleksemalar* deb ham nomlanadi [27, -129]. Masalan, *sur* (ot: «qorakõl teri navi») va *sõr*(sifat: «och kulrang») leksemalari ayni shu shaklda luñatga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda (*surni, surning, surga...* kabi) *sur* (ot) va w(sifat) ñrtasidagi shakliy tenglik yõqoladi. Demak, bu ikki leksema ñrtasidagi shakliy tenglik<sup>12</sup> - Hozirgi ñzbek adabiy tili

ot turkumidagi *sur* so'zi bosh kclishik shaklida b□lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida y□qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemadan farq qiladi.

□t (ot:>>olov>) va □/(fe'lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi shakli) munosabatida boshqacharoq holat kuzatiladi: oVfe'l shakli lu□atga □tmoq shaklida kiritiladi, binobarin, □t (ot) va □tmoq (fe'l) □rtasidagi shakliy tenglik y□qligi ma'lum b□ladi, shunga qaramay feMning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi □t shakli bilan otning bosh keiishigidagi □t shakli orrioforma omoleksemalar sanaladi. Bu leksemalardagi omoforma munosabati o 'ting (sening □ting) va o 'ting (siz □ting) kabi shakliy tenglikda ham yuzaga keladi, ammo o 'tni, o 'ting (otning kelishik shakllari) va o 'tgin, o 'tsin (fe'lning buyruq mayli shakllari) kabi holatlarda omoforma paydo b□lmaydi. Demak, omoforma b□lish turli s□z turkumlariga mansub leksemalarning ayrim grammatik shakllarigagina xos.

Omoformalarda negizga q□shilayotgan affikslar ham shaklan teng b□ladi, shunga k□ra bunday q□shimchalaromoaffikslarsanaladi. Qiyoq qiling: □ting («'-mg» - otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) ~ □ting («-ing» - fe'lning buyruq mayliga mansub affiks) kabi.

#### **114-§. Omonim omoleksemalarning turlanish va tuslanish sistemalariga munosabati**

Omonim omoleksemalar nutqda turlanib yoki tuslanib turli shakllarga kiradi. Qiyoq qiling: bo□-I (ot turkumi: «mevazor, daraxtzor») va bo□-2 (ot turkumi: «beda, □t bog'lami»). Bu ikki ot nutqda turlanib, □zaro tcng b□lgan s□z formalarini (grammatik shakllarni) hosil qiladi:

**bog'-1:** bo□ni, bo□ning, bo□ga, bo□lar... kabi.

**bo□-2:** bo□ni, bo□ning, bo□ga, bo□lar... kabi.

Bunday shakllar s□z formalari sanaladi. S□z formalaridagi tenglik omoforma omoleksemalarga ham xos (yuqorida k□rib □tildi). Demak, nutqda omonimlar ham, omoformalar ham *s□zformalari omonimiyyasini* yuzaga keltirishi mumkin.

#### **115- §. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari**

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari harxildir. Xususan: 1. Tilda azaldan mavjud b□lgan ayrim s□zlarning shakllari tasodifan teng b□lib qoladi: *baqa* («qurbaqa») va *baqa* («suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi»). 178

2. Bir ma'noli s<sup>□</sup>z leksik ma'noning k<sup>□</sup>chishi oqibatida k<sup>□</sup>p ma'noli s<sup>□</sup>zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no □rtasidagi bo<sup>□</sup>lanish unutilib, bir s<sup>□</sup>z negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo b<sup>□</sup>ladi: *kun* («quyosh») - *kun* («sutka»), «kun chiqqandan yana kun chiqqungacha b<sup>□</sup>lgan vaqt») kabi.

3. Boshqa tillardan □zlashtirilgan ayrim leksemalar □zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng b<sup>□</sup>lib qoladi: *toy* (□zb. «otning ikki yashardan kichik bolasi») - *toy* (f-t: «katta t<sup>□</sup>p qilib taxlab yoki bosib bo<sup>□</sup>langan mol va shu tarzagi mol □lchovи»).

4. Boshqa tillardan □zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng b<sup>□</sup>lgan s<sup>□</sup>zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: *rasm* (arabcha: «surat») — *rasm* (arabcha: «urf-odat»).

5. Leksemalar yasalishi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: *q<sup>□</sup>noq* («tariq») — *q<sup>□</sup>noq* (*q<sup>□</sup>n+oq*: «mehmon») kabi.

## 116- §. Omonimiya va polisemiya

**Omonimiya va polisemiya** hodisalari □rtasida malum □xhashlik va tafovutlar bor. □xhashligi: omonimiyada ham, polisemiyada ham ifoda plani (shakli) bixil b<sup>□</sup>ladi, har ikki holatda birdan ortiq ma'no ifodalananadi.

**Farqlari:** omonimiyada shakli bir xil b<sup>□</sup>lgan ikki yoki undan ortiq s<sup>□</sup>z (leksema) nazarda tutiladi; polisemiyada esa bir necha ma'nosi bor b<sup>□</sup>lgan bitta leksema haqidagap boradi. Omonim leksemalarning ma'nolari har xil boiadi, bu ma'nolar □rtasida bogianish y<sup>□</sup>q. K<sup>□</sup>p ma'noli s<sup>□</sup>zning ma'nolari ham har xildir, ammo ular □rtasida bo<sup>□</sup>lanish bor: ular ma'no k<sup>□</sup>chishi asosida yuzaga kelgan boiadi. Qiyos qiling:

- b<sup>□</sup>z (1) - «gazlamaning birturi».
- b<sup>□</sup>z (2) - «□simlikning bir turi».

Bular shakli bir xil, ammo ma'nolari har xil boigan ikkita leksema (omoleksemalar) hisoblanadi.

**Bel** - 1) «umurtqa po<sup>□</sup>onasining pastki qismi»; 2) «odam gavdasining □rta qismi»; 3) «biror predmetning □rta qismi» (*to<sup>□</sup>ning beli*).

Bunda bitta *bel* leksemasining uchta ma'nosi berilgan, bu ma'nolar □rtasida bogianish mavjud.

## 117- §. Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar

**1. Omofonlar** - talaffuzi bir xil, yozilishi har xil b<sup>□</sup>lgan leksemalar: *to'rt*(son turkumidagi s<sup>□</sup>z) - *tort*(ot turkumidagi s<sup>□</sup>z: «konditer mahsuloti»), *t<sup>□</sup>n* («kiyim») - *ton* («tovush toni»), *bob* (talaffuzda: **bop**) - *bop* kabi.

**2. Omograflar** - yozilishi bir xil, talaffuzi har xil b<sup>□</sup>lgan leksemalar: *soya* («quyosh nuri tushmaydigan salqin joy») — *soya* («dukkakkli □simlikning bir turi va uning doni»), *rom* (oyna □rnatilmagan deraza) — *rom* (spirtli ichimlikning bir turi) kabi.

Tilda ur<sup>□</sup>usining □rni bilan farq qiladigan, ammo bir xil yoziladigan leksemalar ham bor: **atlas** («material») - **atlas** («geogr. atlas»), fizik(«fizik hodisa») - **fizik** (fizika mutaxassis) kabi. Bular ur<sup>□</sup>u belgisiz yozilganda omograflar sanaladi, ur<sup>□</sup>u belgisi q<sup>□</sup>yilganda (*atlas* va *atlasfizik vafizjk* kabi grafik shakllarga kirganda) esa omograf b<sup>□</sup>lmaydi. Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas [27, -137; 112, -13].

### 118- §. Omonimlar va omoformalarning uslubiy vosita sifatida qoilanishi (paronomaziya)

Omonimlar va omoformalar til va nutqda □ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi: misralarning qofiyalanishini, tuyuq va askiya janrlariga xos s<sup>□</sup>z □yinini (tajnisni) ta'minlaydi, shu asosda badiiy asarga husn ba<sup>□</sup>ishlaydi. Masalan:

Bir parcha □t boiib bunda **kun**  
Paxtasini ishlaydi har **kun**.  
(H.O)

Uyimda kunduzi vaqt erdi choq **tush**, Yotib  
uyqumda k<sup>□</sup>rdim bir ajib **tush**. Q<sup>□</sup>pol d<sup>□</sup>q  
qildi bir mansabga ma<sup>□</sup>rur, Dedim:  
□pkangni bos, bir parda past **tush**.  
(Hab.)

Yaxshilar insonning k<sup>□</sup>nglini **bezar**,  
Yomonlar fe'lidan odamlar **bezar**, Insonga  
oy olib bergandan k<sup>□</sup>ra, Kishi k<sup>□</sup>nglini  
t<sup>□</sup>ldir, bekumush **bezar**.  
(V.Sa'd.)

Tushma qallob **t<sup>□</sup>riga**,  
□tqizsa ham **t<sup>□</sup>riga**.  
Odam qovun emasdир  
Qarab bilsang **t<sup>□</sup>riga**.  
(Z.Sh.)

### ***Tekshirish savollari va topshiriqlar***

1. Omonimiya nima?
2. Lu<sup>□</sup>aviy omonimiyaning qanday turlari bor?
3. Leksik omonimiyaning turlari haqida ma'lumot bering.
4. Omonimlar va omoformalar (omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar) qanday farqlanadi? 5. Omonimlarning s<sup>□</sup>z turkumlariga munosabati haqida ma'lumot bering. 6. Omonimlar qanday yuzaga kelgan? 7. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi? 8. Omonimlarga yondosh b<sup>□</sup>lgan qanday hodisalar bor? 9. Omonim va omoformalarning uslubiy vosita sifatidagi roli haqida aytib bering.

### ***Tayanch tushunchalar***

**Omonimiya** — til birliklarining ifoda planidagi tenglik hodisasi.

**Leksik omonimiya** — omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi k<sup>□</sup>rinishi.

**Omoformalar** — ayrim grammatik shakllari □zaro teng b<sup>□</sup>lgan leksemalar.

**Omofonlar** — talaffuzi bir xil , yozilishi har xil b<sup>□</sup>lgan leksemalar.

**Omograflar** — yozilishi bir xil , talaffuzi har xil b<sup>□</sup>lgan leksemalar.

## **PARONIMIYA**

**Adabiyotlar:** 26 [55-59], 27 [141-142], 32 [81]. **119- §.**

### **Paronimiya**

**Paronimiya** (yun. *para* - «yonida» + *onyma* - «nom») - ikki yoki undan oitiq leksemalarning talaffuzda □zaro □xhash, ohangdosh b<sup>□</sup>lishi. Bunday □xhashlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksema tarkibidagi tovushlarning fizik-akustik yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, *arqon* va *arkon*. Bu ikki s<sup>□</sup>z tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonema-lardir, ammo ulardan birinchisida «q», ikkinchisida esa «k» fonemalari qatnashgan. Bu ikki fonemaning biri («q») chuqurtil orqa, ikkinchisi («k») esa sayoz. til orqa, ikkalasi ham jarangsiz, portlovchi undoshlardir, demak, ulardagи fizik-akustik va artikulatsion belgilar bir-biriga juda yaqin, shuning uchun *arqon* va *arkon* leksemalari talaffuzida bir-biriga □xhashlik bor. *Taqya* («sidirg'a matodan tayyorlangan d<sup>□</sup>ppi») va *takya* («codamlar

t□planib ulfatchilik qiladigan joy»), *sallox* (qassob) va *saloh* («t□g'rilik», «vijdonlilik») s□zlarida ham shunday; *bayon* va *boyon* s□zlarida esa «a» va «0» unlilarining quyi keng ekanligi, ur□usiz b□□inda q□llanganligt bu ikki s□zning talaffuzidagi □xhashlikka, demak, paronimiyaga sabab b□lgan. Biroq *arpa* va *arfa* s□zlarida bunday □xhashlik, ohangdoshlik y□q, chunki ulardagi «p» va «f» undoshlarining «portlash («p»da) va sir'galish («f»da) belgilari talaffuzda sezilarli darajada farqlanadi, buning ustiga bu leksemalarning s□z ur□usi ham har xil joylashgan (*arpa* va *arfa* kabi). Demak, s□z tarkibidagi birtovush bilan farqlanish doimo paronimiyaga olib kelavermaydi. Aks holda tildagi kvazionimlarning (minimal juftliklarning) barchasini paronimlar deb baholashga t□□ri kelardi: *boy-poy-toy*, *bosh-tosh-mosh*, *til-tish*, *ish-in-ip* kabi. Bunday s□zlar qatori k□p b□□inli s□zlar hisobiga yana-da ortadi: *daraxt-karaxt*, *paxta-taxta*, *tomon-somon* kabi. Bu hol, tabiiyki, paronimiya hodisasini cheksiz qilib q□yadi.

Yuqoridagi mezonni (tovushlardagi fizik-akustik va artikulatsion yaqinlikni hamda aksentologik umumiylikni) yasama s□zlar paronimiyasiga ham tatbiq etsa b□ladi. Xususan, *yolqin* va *yorqin* s□zlarida tovushlar □xhashligi (□zakdag'i «l» va «r»ning ikkalasi ham til oldi va sonor ekanligi) bu ikki Ieksema talaffuzining bir-biriga yaqinligini ta'minlagan, ammojw/ va *yoq* □zak s□zlaridan yasalgan *yonil□i* va *yoqil□i* leksemalarini, *yo 'q* va *yoq* □zak s□zlaridan yasalgan *yo'qamoq* va *yoqlamoq* s□zlarini paronimlar deyish qiyin, chunki bu s□zlarning □zagidagi tovushlar artikulatsiyasida hamda fizik-akustik belgilarida sezilarli tafovutlar bor: «yon» va «yoq»dagi «n» — til oldi, sonor, jarangli; «q» — chuqurtil orqa, portlovchi, jarangsiz; «y□q» va «yoq» dagi «□» — □rta keng, lablashgan; «0» - quyi keng, kuchsiz lablashgan. Ayni shu tafovutli belgilar tufayli *yonil□i* va *yoqilgi*, *yo 'qamoq* va *yoqlamoq* leksemalarining talaffuzi paronimiya mezoniga mos emas. Qolaversa, turli □zakdan bixil affiks bilan s□z yasash paronimiyaga olib keladi deb qarash<sup>9</sup> «bo□», «do□», «y□g» □zak s□zlaridan yasalgan *bo□lamoq*, *do□lamoq*, *yo□lamoq* s□zfarini, shuningdek, «qaraq» va «qada» □zak s□zlaridan yasalgan *qaroqchi* va *qadoqchi* leksemalarini ham paronimlar deb tan olishga majbur qiladi, vaholonki, ularning birortasida paronimlik darajasidagi talaffuz uy□unligi y□q.

Paronimiyada ba'zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng b□imasligi ham mumkin, ammoy ularning talaffuzida bir-biriga yaqinlik, ohangdoshlik b□lishi shart: *amr* (3 ta fonema) - *amir* (4 ta fonema), *asr*

<sup>9</sup> Qara/ig: □zbck tili lcksikologiyasi. Jamoa. - T.: «Fan», 1981, 258-b. 182

(3 ta tbnema) ~ *asir* (4 ta fonema), *abonent* (7 ta fonema) - *abonnement* (9 ta fonema) *diplomat* (8 fonema) — *dimlomant* (9 ta fonema) kabi.

Paronimlar omonimlar va omofonlardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

I. Paronimlarning talaffuzi bir-biriga yaqin,  $\square$ xhash b $\square$ ladi (yuqoridagi misollar). Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil b $\square$ ladi:  $\square$ t(« maysa») va oY(«olov») kabi.

2. Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: *tub* va *tup* (yozuvda) — *tup* va *tup* (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas,  $\square$ xhash b $\square$ ladi: *ganj* va *ganch* kabi.

Omofonlarda fonemalar miqdori teng b $\square$ ladi, paronimlarda esa ular teng b $\square$ lishi ham, teng b $\square$ lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling: *t $\square$ n* — «kiyim» (3 ta fonema) — *ton* — «tovush toni» (3 ta fonema) — omofonlar; *asr* (3 ta fonema) — *asir* (4 ta fonema) - paronimlar kabi.

3. Paronimlarni s $\square$ z variantlari bilan qorishtirmaslik kerak: paronimlar bir s $\square$ z turkumiga mansub bir necha leksemalardir: *san 'at* va *sanoat* kabi. Variatsiyalar esa bir leksemaning turli k $\square$ rinishlari, xolos: *tomosha* va *tamosho*, *d $\square$ ppi* va *t $\square$ ppi*, *gado* va *gadoy*, *shohi* va *shoyi* kabi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslikda paronimiya hodisisining izchil mezonlari yetarli darajada ishlanmagan, shuning uchun bir xil hodisaga har xil baho berish holatlari tez-tez uchrab turatli. Demak, masalaning muammoli jihatlari hali anchagina bor, ulami maxsustadqiq qilish tilshunoslikning navbatdagi vazifalaridan biri b $\square$ lmo $\square$ i kerak.

## 120- §. Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida q $\square$ ilanishi (paronomaziya)

